Samarqand davlat universiteti

Musiqiy ta’lim yo’nalishi

Musiqa o’qitish metodikasi va xalq cholg’u asboblari kafedrasi

«Musiqa ta’lim yo’nalishi talabalarini milliy qadriyatlar ruxida tarbiyalashda musiqa anjumanlarini tutgan o’rni»

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: **Raxmatullayeva Sh.**

Ilmiy rahbar: **E.Djalilov**

Samarqand – 2014

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

MUSIQIY TA’LIM YO’NALISHI

MUSIQA O’QITISH METODIKASI VA XALQ CHOLG’U ASBOBLARI KAFEDRASI

MAVZU: «MUSIQA TA’LIM YO’NALISHI TALABALARINI MILLIY QADRIYATLAR RUXIDA TARBIYALASHDA MUSIQA ANJUMANLARINI TUTGAN O’RNI»

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: **Raxmatullayeva Sh.**

Ilmiy rahbar: **E.Djalilov.**

Bitiruv malakaviy ishi Musiqa o’qitish metodikasi va xalq cholg’ asboblari kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2014– yil 28–maydagi majlisda muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi. (bayonnoma № 10)

Kafedra mudiri: **E.K.Djalilov**

Malakaviy bitiruv ishi YakDAKning 2014 – yil ____ – iyundagi majlisida himioya qilindi va _____foizga baholandi. (bayonnoma № ___)

YakDAK raisi: _____
A’zolari: _____
_____
_____

Samarqand – 2014

Musiqa badiiy grafika va mehnat ta'limi fakulteti « Musiqa o'qitish metodikasi va xalq cholg'u asboblari» kafedrasi majlisining 10-bayonnomasidan

KO'CHIRMA

Samarqand Qatnashdilar: kafedra a'zolarining 14 nafari
2014 yil 28-may.

Majlis raisi: E.K.Djalilov

Kotiba: N.Qurbonova

KUN TARTIBI

«Musiqa o'qitish metodikasi va xalq cholg'u asboblari» kafedrasi 2013 – 2014 – o'quv yilida bajarilgan bitiruv malakaviy ishlarining dastlabki himoyasi va ularni himoyaga tavsiya etish haqida

SO'ZGA CHIQDI : **E.K.Djalilov**

ESHITILDI: 2013 – 2014 – o'quv yilida bajarilgan bitiruv malakaviy ishlari bilan majlis ahlini kafedra mudiri E.K.Djalilov tanishtirdi va quyidagilarni bayon qildi:

2013-2014 Musiqiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr bitiruvchi kurs talabasi Raxmatullayeva Shaxida «Musiqa ta'lim yo'nalishi talabalarini milliy qadriyatlar ruxida tarbiyalashda musiqa anjumanlarini tutgan o'rni» mavzusida bitiruv malakaviy ishini yozib tayyorladi. Ilmiy rahbari E.Djalilov.

. Talaba mavzu bo'yicha yozgan ishini kafedraga taqdim etgan. Ish yuzasidan ilmiy rahbarning ijobiy mulohazalari ham bor. So'zni bakalavr Raxmatullayeva Shaxidaga bersak u o'zining bitiruv malakaviy ishining mazmuni bilan tanishtiradi.

Raxmatullayeva Shaxida. bitiruv malakaviy ishining mazmun – mohiyati haqida gapirib, mavzuning dolzarbligi, o'rganish darajasi, ilmiy va amaliy ahamiyati, amalga oshirilgan ishlar haqida gapirib o'tdi.

Shundan so'ng talabaga professor A.Erpgashev va dots.I.Qudratovlar savollar berishdi: Raxmatullayeva Shaxida berilgan savollarga javob qaytardi.

Raxmatullayeva Shaxidaning mavzu bo'yicha chiqishi va savol – javoblardan so'ng mazkur bitiruv malakaviy ishini Yak.DAK ga himoya qilishga tavsiya etish haqida fikr – mulohazalar bildirildi.

Ushbu masala yuzasidan kafedra yig'ilishi

QAROR QILDI:

1 «Musiqa o'qitish metodikasi va xalq cholg'u asboblari» kafedrasi Musiqiy ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi. Raxmatullayeva Shaxidaning «Musiqa ta'lim yo'nalishi talabalarini milliy qadriyatlar ruxida tarbiyalashda musiqa anjumanlarini tutgan o'rni» mavzusida bitiruv malakaviy ishi talabga javob beradi deb hisoblansin va bitiruv malakaviy ishi Yak.DAKga himoyaga tavsiya etilsin.

2. Raxmatullayeva Shaxidaning ushbu bitiruv malakaviy ishiga SamDU pedagogika va boshlang'ich ta'lim fakulteti Pedagogika kafedrasi dots. N.S.Qiyomov taqrizchi deb belgilansin.

3. «Musiqa o'qitish metodikasi va xalq cholg'u asboblari» kafedrasi ushbu qarorni tasdiqlash fakultet dekanidan so'ralsin.

Majlis raisi: **E.K.Djalilov.**

Kotiba: **N.Qurbonova.**

A.Navoiy nomli SamDU Musiqa, badiiy grafika va mehnat ta'limi fakulteti Musiqiy ta'lim yo'nalishi 4 bosqich talabasi Raxmatullayeva Shaxidaning «Musiqa ta'lim yo'nalishi talabalarini milliy qadriyatlar ruxida tarbiyalashda musiqa anjumanlarini tutgan o'rni» mavzusidagi yozgan bitiruv malakaviy ishiga

Xulosa

Bugungi kunda ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish biz uchun umummilliy, umumdavlat miqiyosidagi kechiktirib bo'lmaydigan vazifa hisoblanadi. Bu ezgu maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan ishlarimizni izchillik va qatiyyatlik bilan davom ettirish bugungi siyosatimizning diqqat markazida turibdi. Haqiqatdan ham mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq bu masalaga katta va uzluksiz e'tibor berib kelmoqda.

Jamiyatimizning eng muhim vazifalaridan biri o'zida ma'naviy boylikni, axloqiy poklik va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan insonni yetishtirishdir. Ana shu tarixiy vazifani hal qilishning asosiy omili murakkab va ko'p qirrali tarbiya tizimidan iborat. Mazkur tizimda yosh avlodni musiqa ta'limi orqali tarbiyalash muhim ahamyat kasb etadi. Musiqa ta'limi yosh avlodning milliy, ma'naviy va axloqiy tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Zero, musiqa madaniyati o'quv predmeti talaba yoshlarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni oshirishga xizmat diladi.

A.Navoiy nomli SamDU Musiqa, badiiy grafika va mehnat ta'limi fakulteti Musiqiy ta'lim yo'nalishi 4 bosqich talabasi Raxmatullayeva Shaxidaning «Musiqa ta'lim yo'nalishi talabalarini milliy qadriyatlar ruxida tarbiyalashda musiqa anjumanlarini tutgan o'rni» mavzusidagi yozgan bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Talaba yoshlar ongiga milliy istiqlol g'oyalarini singdirish, ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash, ularda umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni mustahkamlash, g'oyaviy siyosiy yetuklikni rivojlantirish va ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Jamiyatimizning eng muhim vazifalaridan biri o'zida ma'naviy boylikni, axloqiy poklik va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan insonni yetishtirishdir. Ana shu tarixiy vazifani hal qilishning asosiy omili murakkab va ko'p qirrali tarbiya tizimidan iborat. Mazkur tizimda yosh avlodni musiqa ta'limi orqali tarbiyalash muhim ahamyat kasb etadi. Musiqa ta'limi yosh avlodning milliy, ma'naviy va axloqiy tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, II-bob va har bir bobbi ikki paragraflaridan va xulosa qismidan iborat bo'lib, mavzu aniq yoritilgan. Kirish qismida ushbu bitiruv malakaviy ishi haqida batafsil tushuncha berilgan bo'lib, ishning dolzarbligi, ilmiy yangiligi, maqsad va vazifalari, bitiruv malakaviy ishning obyekti, predmeti, muammolar doirasi aniq yoritib berilgan.

Men taqrizchi sifatida **Raxmatullayeva Shaxidaning** bitiruv malakaviy ishini YaDA komissiyasida himoya qilishga tavsiya etaman.

SamDU «Pedagogika» fakulteti
Maktabgacha ta'lim kafedrasi: **p.f.n.dots.X.Yusupov**

«Musiqa ta’lim yo’nalishi talabalarini milliy qadriyatlar ruxida tarbiyalashda musiqa anjumanlarini tutgan o’rni»

Reja:

Kirish

I-bob. Milliy qadriyatlar millat ko'zgusi.

I.I-§ Milliy va ma'naviy qadriyatlar to'g'risida.

I.II-§ Mustaqillikdan keyingi davrda milliy ma'naviyatga e'tibor.

II-bob. Talabalarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslari.

II.I-§ Talabalarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda musiqiy anjumanlarning (tadbirlarning) tutgan o'rni.

II.II-§ Samarqand-jahonshumul musiqiy anjumanlar markazidir.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

Ilova.

MUNDARIJA

Kirish…….

I-bob. Milliy qadriyatlar millat ko'zgusi.

I.I-§ Milliy va ma'naviy qadriyatlar to'g'risida……..

I.II-§ Mustaqillikdan keyingi davrda milliy ma'naviyatga e'tibor…

II.I-§ Talabalarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda musiqiy anjumanlarning (tadbirlarning) tutgan o'rni.

II-bob. Talabalarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslari.

II.II-§ Samarqand-jahonshumul musiqiy anjumanlar markazidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

Xulosa

Ilova.

Kirish.

"Biron bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy, axloqiy va milliy qadriyatlarni rivojlantirmay, hamda mustahkamlamay turib istiqlolini tasavvur eta olmaydi".

I.A.Karimov.

Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy me'rosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan-avlodga o'tib uzoq tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar yaratib kelingan g'oyat ulkan, ma'naviy va madaniy me'rosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi. Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, lining ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz. Xalqimiz siyosiy mustaqiligi va ozodligini qo'lga kiritgach, o'z taqdirlarining chinakkam egasi, o'z tarixining ijodkori, o'ziga xos madaniyatining sohibiga aylandi. Biroq shuni ham ta'kidlash kerakki, ma'naviy qadriyatlarni hamda biz uchun muqaddas bo'lgan diniy qadriyatlar va an'analarni qaytarish va tiklash o'zligimizni anglash ancha murakkab sharoitlarda eski imperiya tuzumi barbod va yangi ijtimoiy munosabatlar qaror topayotgan bir sharoitda yuz berdi.

Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining holis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zligini anglash ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash jarayonida g'oyat muhim orin tutadi. Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiralarimizda jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda, axloqiy tarbiya

va ibrat manbaiga aylanmoqda. Tarixiy tajriba, an'analarning meros bo'lib o'tishi, bularning barchasi yangidan-yangi avlodlarni tarbiyalaydigan qadriyatlarga aylanib qolmog'i lozim. Bizning ma'daniyatimiz butun insoniyatni o'ziga rom etib kelayotgan markaz bo'lib qolganligi tasodifiy emas. Milliy va ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi ularning hozirgi dunyo va axborot sivilisatsiyasi qadriyatlariga moslashishini ham anglatadi.

Mustaqillik mamlakatimiz aholisining bilim doirasini kengaytirdi. Tarix va hozirgi zamon voqealiklariga murojaat qilish bizning ijtimoiy tafakkurimizdan hayotni idrok etishning mihim va aqidaparastlik qoliplarini yengib o'tishni mustaqil fikr yuritish va ro'y berayotgan hodisalarni baholay olish qobiliyatini talab etdi.

Ma'naviy tiklanish-fikrlash tarzini mustaqillik ruhi belgilaydigan yangi avlodga mansub ijodiy ziyolilarning pay do bo'lishi demakdir.

Halqimizning kelajagi, eng awalo, uning o'ziga, ma'naviy qudratiga va milliy ongining ijodiy kuchiga bog'liqdir. Moddiy farovonlikka tabiiy intilish millatning ma'naviy va aqliy o'sish ehtiyojiga g'ov bo'lmasligi lozim. Ma'naviy va ma'rifiylik halqimizning ko'p asrlik tarixi davomida uning eng kuchli o'ziga xos xususiyati bo'lib keldi. Bizning an'anaviy qadriyatlarimizni hozirgi demokratik jamiyatning qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish kelajakda yanada ravnaq topishimizning, jamiyatimiz jahon hamjamiyatiga qo'shilishining garovidir. Kelajak poydevori bo'lgan yoshlarni milliy va ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalash yuqorida aytib o'tilgan vazifalarimizning asosi bo'lib hisoblanadi.

Bugungi kunda ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish biz uchun umummilliy, umumdavlat miqyosidagi kechiktirib bo'lmaydigan vazifa hisoblanadi. Bu ezgu maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan ishlarimizni izchillik va qat'iyatlilik bilan davom ettirish bugungi siyosatimizning diqqat markazida turibdi. Haqiqatdan ham mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq bu masalaga katta va uzluksiz e'tibor berib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning har bir nutqi va ma'ruzalari, maqola va asarlarida yuksak ma'naviyat kelajak poydevori ekanligi faqatgina iqtisodiy, ijtimoiy farovonlik bilangina emas, halqimiz ma'naviy

barkamolligi, demokratik va insonparvarlik tamoyillarining kishilar ongida nechog'lik chuqur ildiz otishi bilab baholaymiz".

Erksevar halqimiz mustaqillik tufayli o'z yeri, o'z tili, o'z diniga ega bo'ldi, milliy g'ururi, izzat-obro'si tiklanib, endilikda qadriyatlarimiz, ma'naviy merosimizdan bahramand bo'lmoqdamiz. Inson ma'naviy, milliy, ahloqiy qadriyatlarini yuksaltirmasdan turib, halqimiz hayoti va turmushi yuksalishida, hamda mamlakatimiz taraqqiyotida muvaffaqiyatlarga erishish qiyin. Islohotlarning dastlabki bosqichida milliy va ma'naviy qadriyatlarni yuksaltirish yo'lida ko'zlangan maqsad to'la amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarga zamin hozirlandi.

O'zbekistonda ma'daniy meros va qadriyatlarni targ'ib qilishni yanada yaxshilash uchun bir qator qonun, farmon va qarorlar qabul qilingan.

Mustaqillik, bu - ajdodlarimiz qoldirgan boy va muqaddas ma'naviy va milliy qadriyatlardir. Shu ma'naviy va milliy qadriyatlarni har birimiz avaylab-asrashimiz davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muhim vazifa va burchdir. Shu vazifani amalga oshirish va hal qilishda yoshlar va butun xalq ongiga mustaqillik ruhini singdirish katta ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatimizning eng muhim vazifalaridan biri o'zida ma'naviy boylikni, ahloqiy poklik va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirgan insonni yetishtirishdir. Ana shu tarixiy vazifani hal qilishning asosiy omili murakkab va ko'p qirrali tarbiya tizimidan iboratdir. Mazkur tizimda yosh avlodni musiqa ta'limi orqali tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa ta'limi yosh avlodning milliy va ma'naviy, ahloqiy tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Zero, musiqa madaniyati o'quv predmeti yoshlarning ma'naviy, badiiy va ahloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Yosh avlodni tarbiyalashda musiqa ta'limining roli katta. Bunga hatto Respublikamiz Prezidenti ham katta etibor qaratganlar. 1996 yil 31 dekar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Respublikada musiqiy ta'limni, madaniyat va san'at o'quv yurtlari faoliyatini yaxshilash to'g'risida "gi farmonini

joriy etganlar. Unda yosh avlodning o'zbek madaniyati va san'ati an'analari, ilg'or jahon andozalari asosida bilim olishini taminlash hamda ushbu soha o'qituvchi, ilmiy- ijodiy hodimlari melmatini rag'barlantirish, shuningdek, Respublikada madaniyat va san'at bilim yurtlarining moddiy texnik ba'zasini mustahkamlash maqsadida olib boriladigan ishlar to'g'risida fikr yuritilgan.

Bilamizki, musiqa tarbiyasi insonning ma'naviy, axloqiy tarbiyasida juda muhim o'rin tutishi shak-shubhasizdir. Musiqa tarbiyasi bo'yicha halqaro jamiyatning IX konferensiyasida ta'kidlanganidek "musiqa insonning ma'naviy dunyosiga chuqur ta'sir ko'rsatadi va unga o'zining har qanday faoliyat sohasida, har qanday kasb-korlikda zarur bo'ladigan ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilishida yordam beradi."

Ma’lumki, har bir halq yuksak ahloqiy va estetik ideallarning yaratuvchisi hamda davomchisi hisoblanadi. Yoshlarni tarbiyalsahda o'zbek halq musiqa ma'daniyatidan foydalanish muammosini hal qilish g'oyat muhimdir. Binobarin, yosh avlodni halq musiqasi vositalari orqali tarbiyalashning asosiy prinsiplari hamma vaqt ham zarurdir. Demak, musiqa ta'limi jarayonida halqimizning milliy qadriyatlari, urf-odatlari, an'analari, o'zbek milliy musiqa verosini musiqa ta'limi bilan uyg'unlashtirgan holda olib borishimiz zarur. Yoshlarni ahloqiy va estetik tarbiyalashda halq musiqa ma'daniyatidan foydalanish zarurligini yana shu bilan izohlash mumkinki, halq tarixini harakterlantiruvchi kuchdir, sa'natning barcha turlarini, shu jumladanmusiqa sa'natini ham ta'minlaydigan donolikning, ahloqiy poklikning jonli manbaidir. Shunday ekan musiqa ta'limining yangi prinsiplarini dars usullarini ishlab chiqishda milliy va ma'naviy qadriyatlarga alohida e'tirof qaratishimiz lozim.

O'zbek halqi qadimdan o'zining boy moddiy merosi, ma'naviy, milliy qadriyatlariga ega bo'lib kelgan. Bu bisot turli yo'nalish va janrlarda allomalar yaratgan milliy risolalar usta shogirdlik ananalri, to'y marosimlari, turli an'anaviy yig;inlar, bayramlar, sayllar va boshqalar elnind yaxshi va yomon kunlarida kuylanadigan ashulalari, chalidagian s hog'u kuylari tarzida o'z ifodasini topgan. Bu qadriyatlarni halqimizning hozirgi kundagi avlidiga yetkazish, uning ongoga

singdirish, uning ma'naviy ehtiyojiga aylantirish, ularni bu yo'nalishda ma'naviy kamolotga erishtirish uchun bir qancha festivallar, simfoziyumlar, anjumanlar, tanlovlar o'tkazilib kelinmoqda,.

O'tmishni unutgan halqning kelajagi bo'lmaydi. O'zbek halqining esa o'tmish ma'daniyati bor. Mustaqillik sharofati bilan bu umrboqiy qadriyatlarimiz halqimizga qayta qaytdi. Yanada e'zozlanib, sayqallanib borayotir.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng barcha sohalar kabi musiqa ta'limi sohasida ham ulkan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Mustaqillik O'zbekistonimizning milliy, ma'naviy qadriyatlarini tiklashda, xususan, musiqaning ahamiyati beqiyos bo'lgan. Musiqa keng targ'ib qilish, ko'plab ko'rik-tanlovlar, anjumanlar, simfoziumlar tashkil qilish yoshlarni qadriyatlar bilan qadimdan tanishtirish, hurmat qilish, e'zozlash, asrab avaylash kabi vazifalarni hal qilishda yordam berdi. Musiqiy tadbirlarni o'tkazish borasida quyidagi bir qancha vazifalarni amalgam oshirish ko'zda tutildi:

talabalar bilan olib boriladigan ommaviy musiqiy tadbirning yuqori darajada o'tkazilishi bilan ta'minlash;

o'tkaziladigan milliy tadbirlar orqali talabalarni milliy qadriyatlar bilan yaqindan tanishtairish;

ma'naviy-ahloqiy qadriyatlar negizini tushuntirish

har bir millatning o'zligini namoyon etish

milliy va ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalash

Ilmiy izlanishlarimizning natijalari shuni ko'rsatadiki, mam;akatimiz, halqaro miqyosda o'tkaziladigan turli xil musiqiy anjumanlar, jumladan: "O'zbekiston vatanim manim", "Nihol", "Xazina", "Barhayot an'analar", "Vatanimni kuylayman", "Sharq taronalari" kabi ko'rik tanlovlar festival talabalarini, ko'pchilik tinglovchini sa'nat olamiga qiziqishini oshiradi.

Musiqa insonning ongi va ma'naviy dunyosiga katta ta'sir ko'rsatadi, huddi shu sababli u inson uchun ma'naviy go'zallikning qalbi poklikning katta manbai bo'lishi mumkin. Mashhur musiqachi pedagog D.Kobalevskiy shunday degan edi: "Sa'nat insonni o'ziga jalb etish yoki faqat uning ko'nglini chog' qilish qobiliyatiga

ega. Qiziqish chuqur fikrlash va chuqur hissoyotlar bilan yuzaga keladi. Ko'ngil ochish esa har qanday to'l bilan, arzimagan ish bilan amalgam oshishi mumkin, buning uchun odam faqat band bo'lsa va uning asablari tinchlansa bas. Chinakam sa'nat modalar ta'sirida buzilmaydi, u asrlar davomida yashaydi va insoniyat ma'naviy dunyosini boyitadi, o'zi eskirmaydi".

D.Kobalevskiy musiqa tarbiyasi bo'yicha halqaro jamiyatning IX-konferensiyasi qatnashchilariga murojaat qilib quyidagilarni ta'kidlagan edi: "Yoshlarning vaqtini chog' qiling, ularni bo'g'mang, ma'naviy dunyosini o'g'irlamang, ularni o'tmishdagi va hozirdagi buyuk sa'nat bilan muloqotda bo'lish quvonchida mahrum qilmang. Yoshlarni buyuk kishilardan o'rganishga odatlantiring. Ularga har qanday asar janri va shaklidan qat'iy nazar, doimo yuksak darajadagi estetik didga mos bo'lishi kerakligini, estetik asos o'zida faqat badiiylikni emas, balki g'oyaviylikni va ma'naviylikni ham mujassamlashtirishini tushuntiring".

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, mustaqil O'zbekistonimizning kuch qudrati bo'lmish barkamol shaxs, komil insonni har tomonlama yetuk qilib tayyorlash uchun awalo,uning ma'naviy dunyosi boyitish, o'tmish va bugungi milliy va ma'naviy qadriyatlar bilan mujassamlantirgan holda tarbiyalash zarur.

Ma'naviy-ma'rifiy barkamollikning qirralaridan biri milly iftixordir. Milliy g'urur bu milliy iftixordir. Milliy iftixor - bu o'z xalqining bir necha ming yillar davomida yaratib kelgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklari, tarixiy me'rosi, urf -odatlari, an'analari, odob -axloqlari, turmush tarzi, va saboqlariga cheksiz hurmat va e'zoz bilan munosabatda bo'lish, avaylab-asrashdir.

O'z xalqining tarixini, milliy qadriyatlarini, tilini, istiqbol manfaatlarmi bilmagan, qadrlamagan milliy mansubligini unutgan,o'z millatining istiqboli uchun qayg'urmagan kishilarda milliy g'urur ham, millat bilan faxrlanish ham, millatparvarlik ham bo'lmaydi.bunday kishilarni ma'naviy barkamol inson deya olmaymiz. Ma'naviy barkamol, komil insonni tarbiyalash vazifasi qanchalik murakkab bo'lmasin uni amalgam oshirganimizdagina pirovard maqsadlarga erishish mumkin bo'ladi.

Zero, Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek "Xalqni buyuk va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat'iy nazar, har bir fuqaroni yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo ma'suliyat sezib yashashga chorlash, ajdodlarimizning bebaho me'rosi, milliy qadryat va an'analarimizga munosib bo'lishga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hayot me'zonoga aylantirish barechamizning bosh maqsadimizdir. Shu bilan birga, bugungi tez suratlar bilan o'zgarayotgan tahlikali dunyoda o'zligimizni anglash, bizning kimligimizni, qanday buyuk ajdodlarning me'rosiga, necha ming yillik tarix, betakror madaniyat va qadriyatlarga ega ekanligimizni his etib yashashga , bu boylikni asrab avaylab demokratik qadriyatlar, butun jahon taraqqiyoti yutuqlari bilan oziqlantirib, yangi o'sib kelayotgan avlodga etkazishga xizmat qilmog'i zarur. "

Hozirgi yoshlar XXI -asr bo'sag'asida turadigan murakkab muammolarni muvaffaqiyatli hal eta olishlari kerak. Bu hozirgi davrimizning talabidir. Ta'limni isloh qilishning asosiy yo'nalishlari shunga qaratilganligidan I.A.Karimovning "Mustaqil, ozod O'zbekistonning kelajagi istiqbolli yoshlar qo'lida, ravnaqi teran bilimli, yuksak madaniyatli avlodimiz qo'lida" degan chaqirig'i pedagok xodimlarga katta mas'uliyat yuklaydi.

Yoshlar, shaxs kamolotining muhim omili, uning talab ehtiyojlarini qondirish vositasi ekanligini anglab olish katta ahamiyatga egadir.

Mustaqil O'zbekistonimizda yuz berayotgan mana shunday ijobiy o'zgarishlardan hamda yoshlarimizning ta'lim-tarbiyasini yanada takomillashtirish, ularning ma'naviy dunyosini boyitish, ularni milliy qadriyatlar ro'hida tarbiyalash maqsadida men o'zimning ilmiy- tadqiqot ishimning dolzarbligi ya'na bir marta amin bo'ldim.

Olib borilgan ilmiy- tadqiqot ishimda talabalar bilan o'tkazilgan suhbat,so'rov, savol- javoblardagi javoblardan talabalarning ma'naviy- axloqiy dunyosi qay darajada boyligi, ular ongida milliy g'urur, milliy g'oya, milliy qadriyatlar qay darajadasingdirilganligining guvohi bo'ldim.

Ma'lumki, musiqa san'ati talabalarning milliy, ma'naviy dunyoqarashini shakllantirislming eng asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Chunki musiqa talabalarning hissiy-emotsional jarayoniga ta'sir qilib, ularda ijobiy sifatlarni shakllantirishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Musiqa o'z tabiatiga ko'ra kishilar hayoti, ularning o'zaro munosabatlari hamda turli voqealarga munosabatini va icliki kechinmalarni xilma-xil tovush ohanlari bilan badiiy obrazlar vositasida tasvirlaydi. Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta'sir eta olish xususiyati bilan birga o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va axloqiy g'oyaviy tarbiyalaslming muxim vositasidir.

Talaba yoshlar musiqaning san'at sifatida tasvirlash qudratini, tabiat va xayot go'zalligini, voqelik va xatti-harakatlardagi qaytarilmas, ko'z ilg'amas qirralarini musiqa oxanglarida idrok etadilar, chuqurroq xis etadilar.

Talabalarda milliy musiqa merosimizga va u orqali ona Vatanga muxabbat xissini tarbiyalash: jamiyatga foyda keltirishga ishtiyoq, farzandlik, insoniylik burchini va jamoatchilik oldidagi burchini anglash, do'stlik, o'rtoqlik va insonparvarlik kabi ezgu fazilatlarni tarkib toptirish jamiyatimizdagi eng dolzarb vazifalardan biridir.

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi: O'sib kelayotgan barkamol avlodning milliy- ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish, ularda milliy g'urur, milliy iftixor tushunchalarini tarkib toptirish, ularni milliy qadriyatlar ro'hida tarbiyalash hozirgi vaqtning eng dolzarb masalasi bo'lish bilan birga davlat ahamiyatiga ega bo'lganligi, ozod va obod Vatan barpo etishdek ulug' va olijanob maqsadga erishislming eng maqbul va to'g'ri yo'lidir.

Prezidentimiz I.A.Karimovning olib boradigan izchil siyosatini chuqur targ'ib qilish, o'zbek xalqining ulug' mutafakkirlari qutlug' merosidan yoshlarimizni baliraman qilish, milliy istiqlol g'oyalariga cheksiz sadoqat ro'hida tarbiyalash, boy, tarixiy, ilmiy, falsafiy, madaniy va axloqiy merosiga buyuk qadriyatlariga hurmat, milliy g'urur kabi hislatlarini oshirish, tarbiya, san'at, axloqning birligi va shu qadriyatlarini baholash bugungi kunning eng asosiy vazifalaridan biri ekan, talabalarni milliy qadriyatlar ro'hida tarbiyalash yo'llarini o'rganinish, tahlil qilish

amalda qo'llash ushbu ilmiy tadqiqot ishining dolzarbligini ya'na bir karra ta'kidlaydi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: Musiqiy anjuman va tadbirlarni to'g'ri tashkil qilish uslublarini ishlab chiqish va musiqiy anjumanlar orqali talaba yoshlarning milliy- ma'naviy dunyoqarashlariini shakllantirish va ularni milliy qadriyatlar ro'hida tarbiyalashdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifasi: amalga oshirish uchun quyidagi masalalarni aniqlash **vazifasi** qo'yildi:

1. Musiqa tarbiyasining imkoniyatlarini chuqur o'rganish va tahlil qilish; sh.
2. Musiqa darslarida talabalar tomonidan musiqani emotsional-hissiy qabul qilish, asarlardagi obrazlarni pedagogik-psixologik taxlil qilish ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
3. O'tkazilinadigan musiqiy tadbirlar rejasini ishlab chiqish;
4. Respublikamizda hozirgi vaqtda o'tkazilinadigan musiqiy tadbirlarni taslikil qilinish holatini aniqlash;
5. Talabalarda milliy ro'hni shakllantirishda milliy musiqa san'atidan foydalanislming optimal yo'llarini belgilash;

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti: Har qanday ilmiy tadqiqot o'z yo'nalishi, ob'ekti, predmeti va muammolar doirasiga egadir. Ob'ekt- bu tadqiq qilinishi lozim bo'lgan moddiy yoki ma'naviy borliqni, mavjudlikni bir jabhasidir.

Talabalarni milly qadriyatlar ro'hida tarbiyalash- ushbu ilmiy tadqiqot ishining ob'ektidir.

"Ob'ekt" tushunchasidan "tadqiqot predmeti' tushunchasini farqlash lozim.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti: "Predmet" tushunchasi ikkita ma'noga ega. Birinchisi- ontologik (ob'ektiv) ma'no bo'lib, narsa va hodisalar olamida mavjud bo'lgan predmetni(masalan, tosh, qalam, ruchka) bildiradi. Shu ma'noda predmet "ob'ekt" so'zini mazmuni bilan aynandir. Ob'ekt va predmet- olim, tadqiqotchini ongidan tashqarida mavjud bo'lgan, unga bog'liq bo'lmagan narsa va hodisadir.

"Predmet" tushunchasining ikkinchi ma'nosi gnoseologik mazmundir. Pb'ektning ma'lum tomonini o'rganish uchun ajratib olinadi, ajratib olingan tomon muammo va masalaga aylanadi. Ob'ektni o'rganish uchun ajratib olingan muammolarni barqaror tizimi tadqiqot predmetidir.

Tadqiqot predmetida ham ob'ektga (u birlamchi, uni o'rganish kerak), ham tadqiqotchiga (sub'ektga) xos jihatlar mavjud. Tadqiqotchi ob'ektdan uni qiziqtirgan narsani, xossani fikran ajratib oladi, muammoga aylantiradi, ana shunda izlanish predmeti pay do bo'ladi.

Talabalarni musiqiy anjumanlar orqali milliy qadriyatlar ro'hida tarbuyalash- ushbu ilmiy taqqiqot ishining predmetidir.

Bitiruv malakaviy ishining metodlari: foydalanishni taqozo etadi:

1. Musiqiy anjumanlar orqali talabalarni milliy qadriyatlar ro'hida tarbiyalash maqsadida har bir musiqa asarlarini musiqa o'qituvchisining o'zi chuqur tahlil qilgan holda talabalarga o'rgatish;
2. O'tiladigan har bir musiqa darslarining asosiy maqsadini aniqligini ta'minlash;
3. Musiqa darsida ta'lim va tarbiyaviy vositalarning chambarchasligi;
4. Darslardagi har bir tarbiyaviy maqsad va vazifalarning izchilligi;
5. Musiqa darsini har bir bo'limi uchun mazkur musiqa asariga taalluqli o'quv materiallarini to'g'ri tanlash;
6. Eng samarali natija beradigan uslublardan foydalanish;
7. Har bir musiqa asarining talabalarda emotsional hissiy qabul qilish jarayonida individual xususiyatlarni hisobga olish;
8. Musiqa darsining taslikiliy qismini aniqligi;
9. Musiqa darsida individual va jamoa bilan ish olib borishni to'g'ri yo'lga qo'yish;
10. Har bir talabaning individual holatini yaxshi bilish;
11. Olib boriladigan pedagogik uslublarini turlicha bo'lishi, mazmundorligi, emotsionalligini aniqlash;

12. Musiqa darslarining taslikiliy qismiga aloxida e'tibor berish;

13. Musiqa o'qituvchisining musiqiy qobiliyati past talabalar bilan olib boradigan individual ish rejasi.

14. Musiqiy tadbirlar rejasini ishlab chiqish;

15. Tadbirlarda kuylanajak asarlar milliy ro'hda, Vatanparvarlik mavzularida bo'lishini ta'minlash;

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy ahamiyati: Respublikamizda ko'plab musiqiy tadbirlar, xalqaro musiqiy anjumanlar o'tkaziladi. Bularning talabalar ongiga ta'sirini aniqlash lozim.

Matumki, talabalarning ma'naviy- axloqiy, milliy tarbiyasini takomillashtirish har doim ham dolzarbligicha qolgan. Shundan kelib chiqib, ilmiy tadqiqot ishimni talaba yoshlarni musiqiy anjumanlar orqali milliy qadriyatlar ro'hida tarbiyalash mavzuida oldim.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati:

a) Birinchi davr; 2005 yil ilmiy tadqiqot ishlari uchun materiallar to'plandi.. Tanlab olingan guruh talabalari kuzatildi, ularning musiqaviy qobiliyati va ta'sirchanligi o'rganilib, ularning musiqa eshitishi va ijro etishi bo'yicha ko'nikma va mashqlari kuzatildi.

b) Ikkinchi davrda 2006 yil pedagogik- olimlarning ilg'or maktablari tajribalari umumlashtirilib o'rganildi. Musiqiy anjuman va tadbirlar orqali talabalarning milliy-ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish, milliy qadriyatlar ro'hida tarbiyalash uslublari ishlab chiqildi;

v) Uchinchi davrda 2006 yil tanlangan pedagogik uo'1-yo'riqlar to'g'ri va noto'g'riligi tekshirilib, forma va uslublar ishlab chiqildi. Talabalarning milliy-ma'naviy dunyoqarashi ko'rsatkichi aniqlandi.

I-bob Milliy qadriyatlar-millat ko'zgusi.

Istiqlol odamlar ongida madaniy-ma'naviy, ahloqiy, milliy qadriyatlarini tiklash va rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratdi.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, o'tgan 10 yil ichida o'z taqdirining chinakam egasiga aylandi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy va ma'naviy qadryatga ustvor davlat siyosati sifatida etibor berib kelinmoqda . milliy va ma'naviy qadriyatlar qadimdan ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz, tarixiy manbaalardan bizgacha yetib kelgan siyosiy, falsafiy, huquqiy, milliy va diniy qadriyatlar, ahloq odob me'yorlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy,badiiy va san'at asarlari kabi katta ma'naviy boyliklar yig'indisidir.milliy qadriyatlarni muayyan bir avlod yangidan yaratmaydi, milliy me'rosga tayanadi. Shu bilan birga , uni o'zlashtirihsda insonparvarlik, adolat nuqtai nazaridan yondashib rivojlantiradi. Agar sobiq Sho'ro davrida milliy qadriyatlarga sinfiylik, inqilobiylik va partiyaviylik nuqtai nazaridan yondashilgan bo'lsa, mustaqillikning o'tgan 10 yili ichida bu masala umuminsoniylik, milliylik va fi'kr xilma-xilligi, ayniqsa , holislik tarixiylik, haqqoniylik tamoyillari nuqtai nazaridan o'rganildi. Mustaqillikdan so'ng milliy qadriyatlartimiz tiklanib, e'zozlanib, xalqimizga qaytdi. Zero, milliy qadriyatlar-millat ko'zgusi, xalq ruhi ma'naviyati aks etgan poydevordir.

Prezidentimiz I.A.Karimov ilgari surgan fikr va g'oyalar milliy va ma'naviy qadriyatlarning quyidagi omillarini rivojlantirishga munosib hissa bo'lib qo'shildi:

l.Vatan-eng oily qadryat. U menikidir.

2. "Eng oily qadryat- inson"

3. "Mulkning eng yuksak shakli-intellektual mulk va inson faoliyatining eng oily turi-intellektual mehnat " hisoblanadi.

4. Vaqt - eng oily boylik.

5. Umuminsoniy qadriyatlar.

6. Milliy, ma'naviy, marifiy qadriyatlar.

7. Ahloqiy, tarixiy, badiiy,diniy qadriyatlar va boshqalar.

O'zbekistonda madaniy me'ros va qadriyatlarni targ'ib qilishni yanada yaxshilash uchun bir qator qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi.

Mustaqillik tufayli xalqimiz o'z milliy qadriyatlaridan bahramand bo'lish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Xalqimizning qadimiy urf-odati sevimli bayrami bo'lgan "Navro'z"ning tiklanishi mamlakatimis hayotida katta voqea bo'ldi."Navro'z" bayramini umumxalq shodiyonasiga aylantirish yo'lida bir qancha ishlar qilindi. 1991 yildan boshlab 21 mart "Navro'z" dam olish kuni deb elon qilinib, umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanmoqda.

1992 yil 27 martda O'zbekiston respublikasi Prezidentining "Ro'za hayitini dam olish kuni deb elon qilish to'g'risida"gi farmoniga muvofiq musulmonlar hayotidagi qutlug' sanalar bo'lgan Qurbon va Ramazon hayitlari bayram deb elon qilinishi ham xalqimizni yanada quvontirdi.

1999 yil 2 martda "9 may Xotira va qadrlash kuni deb elon qilish to'g'risida"gi Prezident farmoniga binoan ikkinchi jahon urushida fashizmga qarshi kurashib halok bo'lganlar, mamlakatimiz ozodligi va mustaqilligi uchun jon bergan O'zbekistonning o'gil-qizlari xotirasi abadiylashtirildi.

Mustabit tuzum davrida million- million begunoh insonlarning umri xazon bo'lganini, qancha-qancha oilalar xonavayron bo'lib, qancha -qancha go'daklar etim qolgani tartix, bugungi va kelajak avlod hech qachon unutmaydi. Xalqimizning ana shunday ming-minglab fidoiy va matonatli o'g'il -qizlarining xotirasini eslash, haqiqat va adolatni tiklash, zamondoshlarimiz, xususan, o'sib kelayotgan yosh avlod qalbi va ongida o'tganlarning xotirasiga hurmat ehtirom tuyg'usini tarbiyalash maqsadida 2001 yil 1 mayda "Qatag'on larni yod etish kunini belgilash to'g'risida" gi farmoni qabul qilindi.

Unda ta'kidlanganidek, el yurtimiz ozodligi va erkinligi yo'lida , xalqimizning qadr -qimmati, ornomusini, milliy an'analarimiz va urf-odatlarimizni himoya qilishda, bosqinchi va yovxiz kuchlarga qarshi mashaqqatli kurashlarda qurbon bo'lganlar xotirasi minnatdor avlodlar yodiga abadiy saqlanib qoladi.

O'zbekiston Respublikasi Konistitutsiyasi o'tgan davr mobaynida barcha fuqarolar uchun vipedon erkinligini kafolatlab kelmoqda. Har kim xoxlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Lekin, keyingi yillarda bu talablar hamma joyda birday bajarilmasligi oqibatida dinni o'ziga niqob qilib olgan ba'zi vahobiychilik, "Xizbu-tahrir", "Islom Birodarlari" kabi diniy siyosiy oqimdagi aqidaparastlar mamlakatimizda konstitutsiyaviy tuzumga nisbatan g'ayri-ijtimoiy harakatlarni boshlab, xalifalini targ'ib etishga "Jihat yurishlari" qilishga urinib ko'rdilar. Davlatimiz tomonidan buning olda olindi. Fuqarolarning vijdon erkinligini va dinga e'tiqod qilish huquqini ta'minlash maqsadida 1998 yil 1 mayda Oliy Majlisning 11-Sessiyasida "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri qabul qilindi (u dastlab mustaqillidan oldin 1991 yli 14 iyunda qabul qilingan edi).

Islom ekstremizmi, fundamentalizm!, aqidaparastlik xavf-xatarlari I.A.Karimovning bir qancha asarlarida, xususan, "O'zbekiston 21 asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari", "O'zbekiston 21 asrga intilmoqda", "Jamiyatimiz mafkurasi halqni-halq, millatni-millat qilishga xizmat etsin", "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", "Xushyorlikka da'vat" singari asarlarida ko'rsatib berildi.

Hozirgi davrga kelib, O'zbekistonda 15 ta diniy konfessiya faoliyat ko'rsatmoqda. Davlatning diniy tashkilotlar bilan munosabati milliy istiqlol tufayli o'zgardi. O'zbekistonda Buxoro Mirarab madrasasi, Toshkent Islom Universiteti, 14 madrasa, 400 ga yaqin diniy musulmon o'quv muassasalari, boshqa dinlarga tegishli 19 o'quv yurti ishlab turibdi. Diniy ta'limot muassasalarida 4200 dan ortiq yoshlar din asoslarini hamda dunyoviy bilimlarni o'rganmoqdalar.

"Markaziy Osiyo madaniyati" gazetasi, 2000yil,22-28 sentyabr. "Fan va turmush" 2000yil, N-2, J0-1J betlar.

Mustaqillik yillarida ajdodlarimiz buyukligi bilan faxrlanib keldik. Bu faxrlar, iftihor tuyg'usi hozirgi va kelajak avlod ham biz bilan huddi shunday fahrlana olishi mumkin bo'lgan ishlar qilishimizga undamoqda. Albatta, buning uchun buyuk kashfiyotlar, yohud Amerikani qayta ochish shart emas, balki, ayni paytda ishimizga, o'z kasbimizga vijdonan yondashishimiz, yoshlar tarbiyasiga jiddiy e'tibor berishimiz lozim. Shundagina kelgusida yana Ibn Sinoy-yu Beruniylar, Xorazmiy-yu Farobiylar, Navoiy-yu Boburlar, Jaloliddin Manguberdi-yu Amir Temurlar, Najmiddin Kubro-yu Buxoriylar kabibuyuk zotlar yetishib chiqadi.

Har bir davrning o'z dardi, talabi va ehtiyojlari bo'ladi. Mustaqillik odamlar va jamiyat taqdiriga taalluqli juda ko'p jumboqlarni yechib tashlash bilan barobar, ma'naviyatimizning qator muammolarini ko'ndalang qilib qo'ydi. Ayniqsa, axloq-odob masalalari katta ahamiyat kasb etib qoldi.

Buning sabablari ko'p: bir tomondan, inson deb atalmish hayot gultojisiga bo'lgan munosabat o'zgardi, uni azaliy va abadiy rok ma'naviyat yo'liga qaytarish rejalari tuzila boshlandi; katta-kichik, yaxshi yoki yomon, ilg'or yoki johil millat bo'lmasligi, yomonlikning millati-yu, yaxshilikning chegarasi yo'qligiga qanoat hosil qildik. Inson o'z millati, an'analari va umumbashariy qadriyatlari asosidagina kamolotga erishishi og'izda emas, amalda tan olindi.

Ikkinchidan, soxta baynalmilalchilik, qog'ozdagi xalqlar do'stligi g'oyalari odamlar orasida uzoq zamonlardan buyon shakllanib, rivojlanib kelayotgan birodarlik tuyg'ulariga ralma solib qo'ygani, odamlarning millat ajratmasligi uchun, bir-biriga mehrli- oqibatli bo'lishi uchun urush yoki qahatchilik, zilzila yoki tabiiy ofatlarni boshidan kechirishlari shart emasligi, ijtimoiy adolat o'rnatilgan joyda xalqlar va millatlarning chin insoniy fazilatlari gurkirab unishiga ishonch hosil qila boshladik. Ayrim odamlarni aldash mumkin bo'lsa ham, millatlarni uzoq laqillatib bo'lmasligiga endi hamma tushunib yetdi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek , «Tarixiy shon-shuhratimizni, bugungi kunimizni, jahonda tutgan o'rnimizni anglab, porloq kelajakka munosib

sog'lom avlodni tarbiyalash va voyaga yetkazishga e'tibor berayotganimiz ham bugungi kunimizning yorqin belgisidir»\

Ana shunday milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur, iftixor tuyg'ulari ko'tarilayotgan paytda ho'lu quruq baravar yonishi ham mumkin. Bunday millat taqdiri hal bo'layotgan paytlarda uning jahon xalqlari ma'naviyat ko'zgusida yarqiraydigan an'analari, odat va fazilatlari, bu ne'matlarni o'zida mujassamlashtirgan daholar shuuri va millat yuzini yerga qaratadigan «beboshlar» qismati va hokazolar har bir xalqning muayyan davrdagi axloqiy- ruhiy olamini taslikil etadi.

Barkamol axloq va yaxshi xulq birdaniga paydo bo'lmaydi. Xalq axloqiy mezonlari ko'hna ona zamin bilan, Vatan deb atalmish mo'jiza bir diyor bilan, uning jonli va jonsiz xilqati, quyoshi, havosi, bulog'u daryolariga ruhiy rishtalar bilan bog'langan. Bu rishtalar xuddi ona vujudidan hayot nurini oluvchi bola kindigi singari ona zaminga ulangan. Ana shuning uchun axloqiy tasawurlarimiz, adab maktabimiz pirovard natijada millat uchun, uning obro'si va istiqboli uchun xizmat qilsagina boshqalarda ehtirom va havas tuyg'ularini uyg'otadi; ana shundagina millat o'z o'tmishini, taqdirini, urf-odatlarini unutmaydi. Yaxshi fazilatlar, odatlar, an'analar va imonli kishilar siymosi avlodlar yo'lini shamchiroq yanglig' yoritib boradi.

Dunyoda shunday bir kitob borki, u hech qachon o'qib tugatilmaydi, shunday bir musiqa asari borki, uni oxirigacha ijro etib bo'lmaydi. Bu xalq, millat hayoti, taqdiri, urf-odatlaridir.

Mustaqillik tugilgan tillarni biyron qilib yubordi, egilgan bilaklarga kuch berdi, orzumand nigohlarga nur bag'ishladi, tafakkur ufqini kengaytirdi, millat taqdiri va insoniy ideallar qismatini adolat va istiqbol tarozisi ustiga qo'ydi.

Har inson o'z qo'shig'ini aytish bilan barobar zamon va millat kuyiga quloq tutishi ham qarz, ham farz bo'lib qoldi. Shu bois, ba'zi unutilgan yoki odatiy bir

[1] *KarimovLA. "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir". Toshkent, "O'zbekiston", 1995yil, 91-bet.*

yo'sindagi fazilatlarimiz, axloqu odob sohasidagi bebaho mulkimizni eslash qanchalik ko'ngilni yashnatib yuborsa, zamona zayli bilan xalqimizga kirib qolgan yoki ta'bimizni xira qilayotgan jihatlar shunchalik dilimizga ozor beradi.

O'zbek xalqi xususida qayerda, qachon gap ketmasin, uning mehnatkashligi, bolajonligi, mehmondo'stligi, bag'ri kengligi, saxiyligi va insonparvarligi tilga olinadi. Xalqimizning bunday fazilatlari bilan faxrlansak-da, sho'rolar zamonining oxirgi yillarida markaziy gazeta va jurnallar sahifalarida qora harflar bilan bitilgan «0'zbeklar ishi», «0'zbekistondagi poraxo'rlik, millatchilik» singari iboralarni o'qib yurak-bag'rimiz o'rtanib ketgan edi.

Kechani kecha, kunduzni kunduz demay, o'zi yemay birovning og'ziga non tutishga odatlangan, mehmon desa tik oyoda turadigan, birodarlik shunday bo'lsa kerak, degan oriyatda topgan-tutganini, «oq oltin»ini sariq chaqaga almashtirib kun ko'rib kelayotgan, odam boshiga itifokda eng kam maosh olib «boshda do'ppi, gerdayib yurgan» **o'zbegim-xalqim** haqidagi haqorat so'zlar kim-ni larzaga solmagan edi! Oyni etak bilan yopib bo'lmas ekan, qizil imperiya mafkurachilari yuqoridagi so'zlarni peshonamizga muhrlab qo'ymoqchi bo'ldilaru, uddasidan chiqa olmadilar. Haqorat o'qari millat peshonasini tesha olmas, melmat teri bilan yarqiragan manglayimizga qo'nayotgan quyosh nurlarini so'ndira olmas, aksincha, yuraklarni junbushga keltirib, o'zligimizni tanishda va uni yanada yorqinroq namoyo etishda ko'zlarimizni ochdi, xolos.

Qachonki inson jamoalari rasmiyatida, kimnidir kimligini aniqlashda uning millatiga e'tibor berilar ekan, u bittami, o'ntami, qancha bo'lishidan qat'iy nazar fazilat va nuqsonlari bilan u xalqiga yo shon-shuhrat keltiradi, yo hamyurtlari boshini yerga qaratadi. Gap yakka oila fojiasi haqida boradimi, millatning ma'lum davrdagi murakkab iqtisodiy-ma'naviy ahvoli xususida bo'ladimi, bu ko'rguliklarning negizida millatning axloqiy, ma'naviy va milliy fazilatlari, an'analariga bo'lgan munosabat yotadi. Bu munosabat doimo to'g'ri bo'ldimi? Yaxshilik va insoniylik, olijanoblik va melmatsevarlik uchun nimalar qildi-gu, yomon sifatlarning paydo bo'lishi yoki ko'payib ketishiga nimalar sabab bo'ldi, degan savollar tug'iladi. Ha, o'tgan yuz yil oralig'ida juda ko'p xatoliklar bo'ldi. Bu

xatoliklarning eng dahshatlisi millatlarning ma'naviy qadriyatlariga befarqlik, ularning inson uchun naqadar aziz va mo'tabar qirralarini randalash, milliy an'analarni umuminsoniy qadriyatlardan sun'iy ravishda ajratish, millatlarning o'zligini anglash va betakror ma'naviyatini yuksaltirishga bo'lgan tabiiy ehtiyojini tushunib yetmaslik bo'ldi.

Ma'lumki, milliy ko'tarilish, milliy o'zligini anglash, ma'naviy qadriyatlar ko'lamini kengaytirish jarayoni ham axloqiy tasawurlarimiz, an'analarimiz va ezgu fazilatlarimizga borib taqaladi. Ijtimoiy ko'tarilish hech qachon axloqni, insoniylikni buzishga olib kelmagan. Ijtimoiy harakat ilg'or va olijanob milliy fazilatlarga qanot bag'ishlasa, xalq ommasi ruhiyati va orzulari bilan yo'g'rilgan bo'lsa millat va milliy o'ziga xosliklar gullab- yashnashi mumkin. Hech qachon millat yoki milliy qadriyatlar nomidan shaxsiy g'araz yoki shuhratparastlikni ko'zlab aytilgan so'z yuraklarga yetib bormagan, qilingan ishlar milliy qadriyatlar ko'rkini oshirmagan.

Xayriyatki, mustaqillik tufayli milliy urf-odatlarimiz, axloqu odobimiz, ezgu fazilatlarimiz orasida asta-sekin sodir bo'layotgan kasallanishning oldi olindi. Agar mustaqillikkacha kechgan ahvol davom etganda bormi, XXI asrda nasl-nasabini, ota-onasini tanimaydigan o'zbeklarga aylanib qolardik.

Shuni unutmaslik kerakki, insoniyat va millatlar takomili hech qachon milliy an'analarni poymol etish, axloqu odob pardalarini g'ijimlash evaziga emas, aksincha, insonni yanada balandroq ma'naviyat, poklik va odob cho'qqisiga olib chiqishida namoyon bo'ladi.

Odamlarning ongini, ruhiyatini, ismu jismini poklantirish hozirgi kundagi tarbiyaviy- ma'naviy faoliyatimizning asosini tashkil etmoqda. Bunga sabablar ko'p. Bir o'rinda o'tmish davrlar asoratidan qutilish ko'zda tutilsa, ikkinchi o'rinda inson tabiatida uchraydigan, kezi kelganda xuruj qilib turadigan qusurlardan qutulish ehtiyoji ham mavjud. Mustaqillik zamoni ana shunday obyektiv vasubyektiv insoniy xususiyatlar, fazilatlarni poklantirish yo'liga, azaliy va milliy taraqqiyot o'zaniga solib yubordi. Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz o'zining umumbashariy mohiyatini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Milliy an'ana va qadriyatlar rivoji shunday bir dialektik prinsipga asoslanganki, kimki o'z xalqi milliy qadriyatini boshqa millat qadriyatlariga teskari qo'ymagan holda va, aksincha, boshqa millat ma'naviyatini chuqur his qilish darajasiga o'sib chiqsa va o'z milliy qadriyatini bemalol va beminnat namoyish etish imkoniyatiga ega bo'lsa, milliy munosabatlarda do'stona iqtisodiy va ma'naviy muloqotdan o'zga niyat bo'lmasa, ana shunda turli millatlarning ma'naviyatini ifodalovchi umumbashariy qadriyatlar o'sib boraveradi.

O'z tarixini, ma'naviyatini, qadriyatlarni o'zi bunyod etuvchi xalq, elat va millatlarga endi shundai imkoniyatlar yaratilmoqdaki, xalqimizning ham jahon xalqlariga faxrlanib, iftixor tuyg'usi bilan ko'z- ko'z qiladigan fazilatlari qanchalik mo'l- ko'l bo'lsa, yangi tug'ilib, shakllanib qoladigan qusurlarni bartaraf etishga ham aqli va zakovati yetarlidir. Buni milliy urf-odatlarimiz, axloqu odobimiz, chin insoniy ne'matlarimiz taqozo etadi.

Binobarin, "Ajdodlarimizning ruhi poklari va urf-odatlari, bizning eng yaxshi an'analarimiz qayta tiklanganda islohotlar muvaffaqiyatga erishadi. O'ta o'qimishli, ruhan bardam va jismonan baquwat kishilargina istiqlol va taraqqiyot yo'lini bosib o'ta oladi. Sarchashmalari buyuk ajdodlarimizning tafakkurlari va muddaolaridan boshlanadigan xalqimizning ma'naviy qadriyatlari iqtisodiy o'zgartirishlarimizning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi"[1].

'KarimovI.A. "Bizdan ozodva obod Vatan qolsin".Tashkent, "O'zbekiston", 1994yil, 104-105- betlar.

I. I. - § Milliy va ma'naviy qadriyatlar to'g'risida.

Xalqimizning yaxshi an'ana, udumlari, mehnatsevarlik, halollik, mehmondo'stlik, yaxshi qo'ni-qoshnichilik, katta va kichiklar, farzandlar va ota-ona o'rtasidagi hurmat singari ajoyib insoniy qadriyatlar qayta tiklanmoqda. Ming yillar mobaynida shakllangan ma'naviy va milliy qadriyatlar hozirgi davrda yaratilgan ma'naviy boyliklar bilan qo'shilib, taraqqiyotimizni tezlatadi, g'oyaviy va ma'naviy poklanishni ta'minlashga ko'maklashadi.

Dunyodagi har bir davlat, katta-kichikligidan qat'iy nazar, o'z taraqqiyoti jarayonida ma'naviyatga ehtiyoj sezadi. Bu tarixiy zaruratdir. Ma'naviyatning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati tarixning burilish davrida, ayniqsa, beqiyos bo'ladi.

Demak, ma'naviyatning uch guruhi bo'lib, ular milliy, mintaqaviy va umuminsoniy ma'naviyatga bo'linadi. Milliy ma'naviyat - muayyan elat, millat, uning ajdodlarga xoz bo'lgan behad qimmatli ma'naviy boylikdir.

Mintaqaviy ma'naviyat esa muayyan jug;rofiy millatlarga xos, ular uchun umumiy bo'lgan ma'naviy boylilardir. Bunga Markaziy Osiyo xalqlarining mushtarak ma'naviyatini misol qilib keltirish mumkin.

Umumisoniy ma'naviyat esa butun insoniyatga, jahon xalqlanga tegishli bo'lgan ma'naviy boyliklardan taslikil topadi. Milliy ma'naviyat, awalo, tarixiy hodisa ekanligi bilan ajralib turadi. U bir kun yoki bir yilda shakllanmasdan, balki insonning milliy ma'naviy tarixi, millatning ma'naviy kamol topish jarayoni bilan bog'lanib ketadi. Milliy ma'naviyatning asosiy belgisi va o'zagi, milliy ahloq, milliy his-tuyg'u, milliy ruhiyat kabi masalalar bilan bog'liq, shu bilan birga milliy ma'naviyat milliy manfaat masalalarini ham o'rganib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ma'naviyat majmui ham milliy ham umuminsoniy qadriyatlat asosida shakllanadi. Milliy ahloq ma'naviyatning markazida turadi. Uning belgilari rostlik, adolat, do'stlik insonparvarlik, bir-biriga hurmat, hamjihatlik, bilimlilik, mehnatsevarlik, ona tili va vatanga muhabbat, ma'sullik, halollik singari fazilatlardir. Qadriyat so'zining ma'nosini o'zbek tilidagi qadr so'zi ma'nosidan bilib

olish mumkin. Qadr tushunchasi serqirra ma'no va mazmunga ega bo'lib, qadriyat sifatida qaralayotgan obyek, narsa, voqea, hodisa yoki biror ideallikning subyekt uchun ijtimoiy ahamiyatini anglatadi. Qadriyatlar mohiyati jihatidan moddiy va ma'naviy qadriyatlarga bo'linadi va ular quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

1. Inson yashab turgan moddiy muhit bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar;
2. An'analar, urf-odatlar va rasimlarda aks etadigan ahloqiy qadriyatlar;
3. Insoniyat aql-idroik va amaliy faoliyati zaminida shakllangan mexnat malakalari va ko'nikmalari, bilim va tajribalari, qobiliyat va iste'dodlarida namoyon bo'ladigan qadriyatlar;
4. Odamlar o'rtasidagi jamoachili, hamkorlik, hayrixoxlilik, hamjihatlikka asoslangan munosabatlrda ko'rinadigan qadriyatlar;
5. Kishilar yoshi, kasbi, jinsi va irqiy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar;

Bayon etilgan qadriyatlar, o'z navbatida:

1) Umuminsoniy;
2) Mintaqaviy;
3) Milliy;
4) Diniy qadriyatlarga bo'linadi.

Umuminsoniy ma'naviyat birligida mazkur qadriyatlarning o'ziga xos o'rni bo'lib, ular ikki turga **milliy** va **umuminsoniy** qadriyatlarga bo'linadi.

Milliy qadriyatlar ayrim xalq milliy millatlar va elatlarning tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar yig'indisidan iborat. Milliy qadriyatlar umumisnoniy va mintaqaviy qadriyatlar bilan bog'liq bo'ladi.

Milliy qadriyatlar masalasiga mustaqillikkacha yetarli e'tibor berilmay kelindi. Endilikda mustaqillik va demokratiya jarayonini milliy qadriyatlarni qayta idrok etish va anglashni talab etadi. Bu sohada yig'ilib qolgan muammolarni tafakkur asosida chuqur nazariy mushohada etish hayot taqozosidir.

Milliy qadriyatlar tor ma'noda muayyan bir millatning, elatning qiziqishlari va manfaatlarini ifodalovchi munosabatlar mazmunini tashkil etsa keng

ma'noda muayyan bir davlatda yashovchi barcha **millatlar hamda elatlartning manfaatlari va qiziqishlarini ifodalovchi** munosabatlar yig'indisini aks ettiradi.

Milliy qadriyatlarning shakllanishi va rivojlanishi muayyan bir millatning hayoti turmush tarzim, tarixi ,ma'naviyati, urf-odatlari, tili, o'tmishi, kelajagi bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy tarixiy hodisa bo'lib, millatning tili, tarixi, udumlari jamiki moddiy va ma'naviy boyliklari, iqtisodiy , siyosiy va ma'naviy hayotini har tomonlama qarab oladi. Insonning qaysi millatga mansub ekanligi uning tuyg'usida ham aks etadi. Milliy tuyg'u-tabiiy tuyg'udir. Unda millatning tarixi, hozirgi ahvoli, milliy ruhiyati va hususiyatini tushunish hissiy shaklda mujassamlashgan bo'ladi. Insonda milliy ong va g'urur bo'lmasa, u o'zining qaysi millatga munosib his etmasa, uning o'z milliy manfaat va qadriyatlarini qanday qilib anglashini tasawur qilish qiyin. Toki millatlar, milliy manfaatlar mavjud ekan milliy munosabatlar ham, milliy tuyg'ular ham, milliy qadriyatlar ham saqlanib qoladi. Milliy qadriyatlardan mahrum qilishga urinish tarix va insoniyat uchun eng katta jinoyat ekanligini bugun tushunib yetyapmiz. Millatlarning o'z o'rnini anglash jarayoni takomillashgan sari milliy manfaatlari bilan birga milliy qadriyatlari ham kuchayib, mustahkamlanib boraveradi.

Milliy qadriyatlarning kuchayib borishi mahdudlikka, milliy hudbinlikka, o'z millati manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish, boshqa millatlar va xalqlar manfaatlarini hisobga olmaslikka olib kelmasligi kerak.

Qadriyatlar qamchalik bir-biriga yaqinlashib ta'sir ko'rsatmasin, har-bir millat uchun ma'naviy kamolatning asosiy yo'li va mezoni milliy qadriyatlar bilan qolaveradi. Biror millatning, marosimlari boshqa millat ruhi, milliy ma'naviy ehtiyoji va talablariga mos kelgandagina shu millat hayotida chuqur tomir ortish imkoniga ega boTadi.

Undan tashqari, har bir xalq qadrlagan narsa yoki hodisa birinchi navbatda uning milliy manfaati bilan bog'liq bo'ladi. Milliy qadriyatlarni qandaydir o'zgarmas hodisa deb qaramaslik kerak. Milliy taraqqiyot bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy,

iqtisodiy, ma'naviy hayotining takomillashib borishi, yashash va melmat qilib borish sharoitlari bilan o'zgarishi bilan milliy qadriyatlar ham rivojlanib boraveradi.

Umuminsoniy qadriyatlar insonlarga axloq va madaniyatning ustunligmi e'tirof etishda, ularni turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzumli mamlakatlar hamkorligining umu,iy yo'nalishini hosil qilish va dunyoda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy ishlarni tushunishda, madaniy-ma'naviy, ilmiy-texnikaviy, harbiy sohani, aloqani mamlakatlar va xalqlarda rivojlantrishda ko'rinadi.

Umuminsoniy qadriyatlar jahon sivilizatsiyasining yaxlitligi uning barcha bosqichlari bir-biri bilan uzviy bog'langanligini ifodasidir. Bu jihatdan qaraganda umuminsoniy va milliy qadriyatlar bir-biri bilan bevosita bog'liqdir.

Umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlardan mazmun jihatdan chuqur va keng bo'lib, uni o'z ichiga oladi. Demak, umuminsoniy qadriyatlar barcha millatlar, elatlar va xalqlarning maqsad va intilishlarining yaxlitligi hamda umumiyligini ifodalaydi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, dunyodagi bororta xalq va millat o'zidan boshqa xalq va millatlar umumiyjahon sivilizatsiyasidan alohida tarixga ega emas. Millatlar boshqa xalqlarning yutuqlaridan foydalanmay turib tivojlana olmayd. Barcha xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy rivojlanish tarixi bir-biri bilan uzviy bog'lanib taraqqiy etib kelgan. Zotan hamma vaqt butun jahon iqtisodiy va ma'naviy xalqlar, millatlar, elatlar, urug'lar va qabilalar tarixi, taqdirlarining o'zaro bog'lanishi bir-birini boitishi asosida amalga oshirib kelgan.

Umuminsoniy qadriyatlar o'zining mazmun mohiyati, keng miqyosda amal qilishi dunyodagi ko'plab xalqlar, millatlarning o'tmishdagi hozirgi davrdagi va istiqboldagi taraqqiyoti bilan uzviy aloqadorlikka ega ekanligi bilan mintaqaviy va milliy qadriyatlar tubdan farq qiladi.

Tabiatni muhofaza qilish ekologik tarbiya va madaniyatini rivojlantirish, insoniyatning sihat-salomatligini ta'minlash, oziq-ovqat, energiya va yonilg'i tanqisligini tugatish, ma'naviy boyliklarni, sivilizatsiyani eson-omon saqlab qolish, urushlarni boshlanishiga yo'l qo'ymaslik, tinchlikni saqlab qolish-bularning hammasi umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlardir. Umuminsoniy qadriyatlar alohida xalqlar va millatlargina mansub, bashariyatning mulkidir.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar bir-biri bilan bevosita bog'liqdir. Ularning har ikkalasi bir-biriga ta'sir etadi. Biri ikkinchisini to'ldiradi, mazmunan boyitadi.

Milliy va ma'naviy qadriyatlarkishilarning talab va istaklari asosida aql-zakovat bilan yaratish, ularning tasawurlari, tafakkurlari, kelajak orzu-istaklari, e'tiqodlari, axloq qoidalarini o'zida mujassam etgan, hayotda sayqal topgan ma'naviy boylik bo'lib, tarbiyaning tayanch vositalaridan hisoblanadi. qolaversa, bunday qadriyatlar tarixiy taraqqiyortda, hayotda sinalgan, jamiyat taraqqiyotida aliamiyatli, ijtimoiy hodisadir.

Milliy ma'naviyat hayot uchun qimmatli inson qalbida o'chmas iz qoldiradigan insoniyat ijtimoiy manfaati ehtiyoji uchun hizmat qiladigan, ularni ezgulikka yo'llaydigan ma'naviy boylikdir. Milliy ma'naviy boyliklarga ilm-fan, falsafiy tafakkur yutuqlari, adabiyot, me'morchilik, san'at asarlari, kashfiyot, ixtirolar ma'naviyat madaniyat durdonalri hur, fikrlilik, milliy axloqiy me'yorlar kiradi.

Milliy ma'naviyat o'z ijobiy ahamiyatini yo'qotmaydi. Inson ozodligi, Vatan, inson salomatligi, intellektual va axliy mulklar, vaqt har bir shaxsning yashash, bilim olish, keksayganda ijtimoiy himoyalash imkoniyatlari, adolat, mehnatsevarlik, ota-onani hurmat qilish, farzandlari haqida g'amxo'rlik, vijdon, burch kabi baynalmilarlik kabi qadriyatlar milliy qadriyatlar sirasiga kiradi.

Xalqlarning ulug'vorligi milliy mahdidlikka emas balki, milliy xususiyatlarda ega ekanligida jahon sivilizatsiyasiga qo'shadigan xissasidadir. Chog'da boshqa bir narsani ham e'tibordan qochirmaslik kerak. Gap shundaki milliy manfaatlarni milliy qadriyatlarni qarama-qarshi qo'yish, muayyan ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa muammolarni qaysidir milliy va elatning manfaatlariga xilof ravishda hal etishga intilish milliy manfaat bahonasida, milliy xudbinlikni, tekinxo'rlikni olqishlash millatlararo munosabatlar taraqqiyotiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Bir millatning manfaat va qadriyatlari boshqa millatning ajralmagan holda o'rganilishi kerak. Mamlakatimizda yashovshi har bir millat va elat singari o'zbek xalqining o'ziga yarasha ajoyib moddiy, ma'naviy, tarixiy qadriyatlari bor. Ularni oqilona va xolisona o'rganish mustaqillik sharoitidagi iqtisodiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyotning shartlaridan biridir.

Demak, qadriyatlarni mohiyati va mazmuniga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Inson va insoniyat - eng oliy qadriyatdir.
2. Insoniyatning mavjud bo'lishi uchun zarur bo'lgan tabiiy imkoniyatlar, mehnat, melmat qurollari va mehnat mahsulotlarining birligi moddiy hayot qadriyatlari.
3. Jamiyat hayotiy faoliyati uchun zarur bo'lgan va insoniyatning taraqqiyot jarayonida yuzaga kelgan ijtimoiy soha va tuzilmalar (oila, millat, sinf, davlat) majburiy ijtimoiy hayot qadriyatlari tushunchasida ifodalanadi.
4. Kishilarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan ilmiy bilimlar, falsafiy, axloqiy, estetik g'oya va idiallar yig'indisi ma'naviy hayot qadriyatlari deb ataladi.

Milliylikda insoniy va milliy qadriyatlar muayyan qiyofa shakl kasb etadi. Milliylikda milliy mansublik ruhi ham mavjud. Diqqat qilinsa, milliy ruhimizdagi milliy tuyg'ularimiz mavjud milliy tasawurlarimiz, kayfiyatlarimizda sodda ong sifatida ifodalanishini bilish mumkin. Agar milliy mansublik va uning barcha tomonlarining tasawurida ilmiy asoslangan bo'lsa, uni milliy o'z-o'zini anglash deb tushunish mumkin. Milliyni o'zlikni anglash ilmiy-siyosiy tus olsa va ijtimoiy harakat uchun qoTlanma darajasiga ko'tarish bo'lsa, milliy mafkura deb ataladi. Bu sohadagi asosiy qoidalar I.A.Karimovning "Istiqlol va ma'naviyat" asarida ta'kidlangan bo'lib, bugungi kunimizga xos erkin xususiyatlardan biri millatning o'zligini anglashdir.

Demak, millatning o'zligini anglash tushunchalarining tarkibiy qismlari awalo, quyidagilardan iborat:

1. Milliy birlikni va boshqa etnoslarning mavjudligini tushunib yetish:
2. Milliy qadriyatlar: til, tug'ilib o'sgan joy madaniyatga keng ma'noda sodiqlik.
3. Milliy manfaatlarni tushunib yetish.
4. Milliy mustaqillik va milliy taraqqiyotga intilish.
5. Vatanparvarlik.

Shaxs milliy o'zligini anglash tushunchasining tarkibiy qismlarining o'rganishda quyidagi jihatlarga diqqat qaratmog'i lozim:

1. Milliy (etnos) ga mansublikni anglash.
2. Millatning insoniyat taraqqiyotidagi tarixiy o'rnini bilish.
3. Milliy qadriyatlarga sadoqat.
4. Milliy taraqqiyotga vijdonan xizmat qilish.

Basharti, mustaqil davlatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi bo'lgan xalqda yetuk milliy ong bo'lmasa, ozodlik, erkinlik haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Agar xalqning milliy onggi to'xtovsiz o'sib bormasa mustaqillikning ma'naviy zamini mustahkamlanmaydi. Chunki milliy ong mustaqillikka yo'nalish beradi, xalqni yakdil qiladi.

Har bir jamiyat o'tmishi madaniy merosi qanday bo'lsa, shundayligicha, ko'r-ko'rona qabul qilib olmaydi. Har birjamiyat madaniy merosining o'z dunyoqarashi, tuzumi, manfaatlariga mos keladigan bugun va kelajak uchun xurmat qiladigan qisminigina qabul qiladi. Chunki o'tmishdan ham barcha narsalarni har xil qadriyat tushunchasi doirasiga kiritib bo'lmaydi. Masalan,

Sho'rolar zamonida yaratilib uning siyosatini targ'ib etgan komunistik mafkura nuqtai nazardan yozilgan, endilikda o'z umrini yashab bo'lgan qancha-qancha asarlarga bugungi kun uchun ham, kelajak uchun ham qadriyat sifatida qarab bo'lmaydi. To'g'ri, ular meros, lekin madaniy meros emas, ularni tarixiy fakt sifatida saqlab qolish mumkin xolos. Demak, madaniy merosning qadri abadul-abad tushmaydigan qismiga milliy qadriyatlar deyiladi.

O'zbekistonda istiqlol sharofati bilan milliy qadriyatlar qayta tiklanmoqda. Milliy qadriyatlarimiz istiqlol madaniyatini yaratishimizga negiz bo'lib qolmoqda. Bu ham milliy mafkuramizda ham o'z ifodasini topib jamiyat taraqqiyotida xurmat qilmoqda. Qaysi mamlakatda bo'lmasin, jamiyatdagi yangilanish doimo madaniy merosning uyg'onishiga olib keladi. Bu esa ommaning birlashuvida, milliy o'zgani anglashga shakllanishi va rivojlanishida muhim adabiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, eski mafkuradan voz kechgan va yetarli darajada ishlangan yangi mafkura hali yaratilmagan paytda yuzaga kelgan bo'shliqni to'ldiradi. MDH

davlatlarida yuzaga kelgan hozirgi ahvol fikrimiz dalilidir. Ularning har biri milliy uyg'onish omili sifatida o'tmish madaniy merosini zo'r berib tiklamoqda.

Respublikamizda 1994-yilda "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi qoshida 1996-yil yanvar oyida shu markaz oltin meros xalqaro jamg'armasining tashkil etilishi mustaqillik sharoitida o'tmish madaniy merosini o'rganishi va o'zlashtirishning yorqin dalilidir. "Oltin meros" hayriya jamg'armasiga O'zbekiston ijodkorlari, ijodkor yoshlarining "Iste'dod" hayriya milliy va ijtimoiy barqarorlik hamda ma'naviyat jamg'armalari ham qo'shildi. Yangi hayriya jamg'armasi faoliyati xalqimiz merosining nodir namunalarini to'plash va asrab avaylashga, uni nafaqat respublikamizda, balki turli mamlakatlarda targ'ub qilishga qaratilgan. Ushbu jamg'arma fuqarolar o'rtasida, ayniqsa yoshlar vatanparvarlik, mustaqillik tuyg'ularini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ma'naviy merosni o'rganishda quyidagilar muhim o'rin tutadi.

xalq og'zaki ijodi (asotir, afsona, mif, rivoyat, ertak, doston, maqol, matal, qo'shiq, latifa, xalq dramasi, askiya);

xalq tasviriy va amaliy san'ati (xalq yaratgan badiiy-estetik san'at namunalari, xalq teatri, xalq musiqa san' ati);

ijtimoiy tarixiy taraqqiyor jarayonida paydo bo'lgan, rivojlangan qadriyat darajasiga ko'tarilgan an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, amaliy faoliyatdagi ilg'or tajribalar yig'indisi. Xalq og'zaki ijodi namunalarida ma'naviy qadriyatlar guruhiga mansub barcha qadriyatlarning poydevori (insonparvarlik, bilimdonlik, melmatsevarlik, adolatparvarlik, kattalarga hurmat, rostgo'ylik, mehmondo'stlik va boshqalar) o'z aksini topgan.

Doston xalq ma'naviy qadriyatlarining qorishiq holda mujassamlantiruvchi xalq og'zaki ijodi janrlaridan biri bo'lib, unda musiqa, teatr, sheriyat kabi badiiy estetik qadriyatlar birlashtirilgan. Dostonlarda yuksak insoniy fazilatlar baxshilar tomonidan badiiyhago'ylik yo'li bilan tinglovchilarga yetkaziladi. Uning hissi ta'siri kuchi orqali Sharq xalqlarining chatishib ketgan falsafiy, diniy, axloqiy qarashlari urf-odatlari turmushi badiiy govdalantiriladi. Shuninh uchun dostonlarning tarbiyaviy va ma'rifiy ahamiyati yuksak go'zallikka, baxt-saodatga erishislming

birdan-bir yo'li maqsad sari qat'iy intilishdan matonat mardlik, qaliromonlik ko'rsatishdan iborat. 1998-yil 13-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Alpomish" dostoni yaratilganligining 100-yilligini nishonlash to'g'risida qaror qabul qilindi. "Alpomish" dostoni ajdodlarimiz ijodiy dahosining bebaxo badiiy yodgorligi sifatida jahon xalqlari liro-epik ijodining namunalari ichida alohida o'rin tutadi. Uni mustaqil rivojlanish davrida millat birliga va ma'naviy uyg'onish, g'urur va o'z-o'zini anglash ramziga aylanganligi ushbu doston yaratilganining 1000-yilligi YUNESKO ning 1996-yildagi tadbirlari rejasiga kiritilganligi folklor merosini avaylab asrash va ajdodlarimizga to'la yetkazish maqsadida amalga oshirilgan g'oyatda muhim tadbir bo'ldi. Surxondaryo va Toshkent shahar hokimlari birgalikda 1999-yilnmg oktabr oyida Toshkent shahrida "Alpomish va jahon xalqlari epik ijodiyoti" mavzusida xalqaro konferensiya va Surxondaryo viloyatida tantanali bayram tadbirini o'tkazgani bejiz emas.

Milliy qadriyatlar alohida olingan xalq, millat va elatning o'z tarixiy taraqqiyoti davomida yaratgan. Barcha moddiy va ma'naviy boyliklari, urf-odatlari, marosimlrai, bayramlari va millatlarning o'zligini belgilaydigan boshqa o'ziga xos tomonlari yig'indisidan ibratdir. O'ziga xos moddiy-ma'naviy, oilaviy hayot turmush tarzida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, xalq amaliy san'ati, xalq o'yinlari, rasm-rusumlari, urf-odatlari, marosimlari ham milliy qadriyat doirasiga kiradi.

Bulardan boshqa yana quyidagi qadriyatlarni milliy qadriyatlar sifatida belgilash mumkin: Tabiiy qadriyatlar (yer, suv, yer usti va yer osti boyliklari, havo);

Ijtimoi qadriyatlar (oila, millat, sinf va hokazolar);

Moddiy qadriyatlar;

Ma'naviy qadriyatlar;

Umuminsoniy qadriyatlar;

Oilaviy qadriyatlar;

Shaxsiy qadriyatlar;

Ma'lumki, ma'naviy qadriyatlar butun insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va madaniy, ilmiy, falsafiy, axloqiy, estetik, huquqiy, siyosiy, badiiy, ekologik

qarashlar, butun insoniyatning mulki bo'lgan boshqa qadriyatlaryig'indisida iboratdir. Haqiqatan, madaniyat, ma'naviyat umuminsoniy hodisa hisoblanadi. Jamiyatninh ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyoti bevosita uning ma'naviy axloqiy negizlarining rivojlanishi bilan bog'liqdir. O'zbekiston prezidenti 1992-yildayoq "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" asarida qayd qilganidek, bu negizlar:

ma'naviy qadriyatlarga sodiqlik;

xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;

insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;

vatanparvarlikdan iboratdir;

kadrlar tayyorlash milliy tayyorlash dasturida ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlarga alohida o'rin berilgan. Unda aytilishicha, "yosh avlodni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda xalqning boy millit madaniy tarixi an'analariga, urf-odatlariga hamda umumbashar qadriyatlariga samarali taslikiliy pedagogic shakl va vositalari ishlab chiqarilib, amaliyotga joriy etiladi".

Din, fan va san'at negizida shakllanuvchi axloq, ma'naviy meros hamda qadriyatlar ma'naviyatning tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Ma'naviyat odamning ruhiy va axloqiy olami yig'indisi. Ma'naviyat inson va jamiyat madaniyatining negizi, inson va jamiyat kabi malum yo'nalishining bosh omili. U muayyan iqtisodiy-ijtimoiy hayot tizimining shakllanishi, o'zgarishi yoki inqirozga yuz tutishda kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviy bilim ma'naviy boyib borsa jamiyat, ravnaq topib boradi va aksincha, ma'naviyatning qashshoqlashuvi jamiyatni tanazulga yuz tutishiga olib keladi. Boy ma'naviyatsiz buyuk davlat qunb bo'lmaydi. Ma'naviyat jamiyat va millat ravnaqining bosh omili va poydevoridir. Ma'naviy insonni ruhiy shakllanish va yuksalishga davat etadigan inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdodini uyg'otadigan qudratli botiniy kuch ekanligini unutmaslik lozim. Moddiy narsalar odamga jismoniy oziq va quwat bersa, ma'navuyat unga ruhiy oziq va qudrat bag'ishlaydi. Faqat moddiy jihatdan ta'minlanish bilan kifoyalanish-ongsiz va ruhsiz

mahluqlarga xosdir. Ma'naviyatga intilish esa mh va ong egasi bo'lmish odanga xos fazilatdir.

Ma'naviyat jamiyatning, millatning va yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqli qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi masalalanga munosabat tubdan ozgarib uning boyib borishiga kuchli e'tibor berilayotgani ana shunda. Zero, prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek ma'naviyat taqdirning ehsoni emas, ma'naviyat inson qalbida kamol topishi bilan mehnat qilishi kerak. Aslida ma'naviyat inson ko'rki bo'lib uning ichki va tashqi dunyosida namoyon bo'ladi. Bu albatta, ruh va aql bilan bog'liqdir. Bu jihatdan qaraganda jahon falsafasida inson vujudida ikki qarama qarshi asos modda va ruh dealioktik bog'liklikda va inson mohiyatini belgilashda bosh ahamiyat kasb etishi aytiladi. Inson o'z aql-zakovati shu ikki asosni boshqarib, nazorat qilib turadi.

Birinchi asos - inson tanasi jismining ehtiyojlarni moddiydir. Inson moddiy dunyoda yashar ekan boshqa jonli mavjudotlaridan mehnat qilish jarayonida o'z aql zakovati maqsadini mehnat qilish jarayonida amalga oshirishi bilan farqlanadi. Yaqin yillargacha moddiy falsafasi aql zakovatimizni, iste'dod salohiyatimizni, ta'nimiz ehtiyojlarini nafsitimiz yo'liga xizmat qildirganligi sir emas. Insonni shu bugungiga qadar yaratgan jamiki moddiy va ma'naviy boyliklarining negizi aynan shu ikki asos moddiy va ruhga tayangan ehtiyojlardir.

Inson vujudididagi bu asoslar tarbiya va parvarishga muhtoj. Tarbiya va parvarish orqali ularning inson vujudidagi muvozanati saqlanadi, muttanosibligi ta'minlanadi, iymonning yetilishi insoning ma'naviy ruhiy jihatdan yuksalishi, o'z-o'zini anglab yetishi komil shaxs darajasiga ko'tarilishiga sabab bo'ladi.

Ma'naviy milliy xususiyatga ega ekanligini hech qachin unutmaslik kerak. U milliy urf odatlar, tarbiya an'analari, axloq odob normalari, qadriyatlar, din, e'tiqod, madaniy ma'rifiy ijtimoiy, redaktik, falsafiy pedagogik qarashlar, ruhiy-psixologik jarayonlar va shu kabilar majmuasidan iboratdir.

I. II - §. Mustaqillikdan keyingi davrda milliy ma'naviyatga etibor.

Milliy ma'naviyat "millat" tushunchasi bilan bog'liq "millat" so'zi "o'zak" "tub mohiyat" "negiz" degan ma'noni bildiradi. "millat" so'zi arab tilida qo'yidagi ma'noni anglatadi:

Birinchi - din, mazhab;

Ikkinchi - ummat;

Uchunci - xalq, qavmi;

Millat so'zi Qur'oni Karimda ham qo'llanilgan. Qur'onda har bir millat vakilli o'z millat qadriyatlarini rivojlantirishi savobli ish. O'z millatidan, qavmidan kechib boshqa millatga o'tib olish esa gunoh etib tayinlangan.

Millat ma'naviyat profil muayyan elat millatga uning ajdodlariga xos bo'lgan g'oyat qimmatli ma'naviy boyliklardir.

Milliy ma'naviyat boshqa millat ma'naviyatidan tubdan farq qiladigan ma'naviyat degan emas chunki bizgacha milliy ma'naviyat boshqa xalqlarda muayyan tarzda bor, mavjuddir. Ammo milliy ma'naviyatda boshqa xalqlarning ma'naviyati aynan takrorlanmaydi. Shunday bo'lganda edi milliy ma'naviyat bo'lmas edi.

Milliy ma'naviyat, awalo tarixiy hodisa ekanligi bilan ajralib turadi. U bir kunda, bir yilda balki bir asrda ham mukammal shakllanmaydi. Milliy ma'naviyat tarixi millatning ma'naviy takomil jarayoni bilan bog'liqdir. Unda ba'zi asrlar kunlarga va aksincha, kunlar asrlarga teng bo'lishi mumkin. Milliy ma'naviy kamoloti zamonda, ya'ni millatni butun tarixi davomida yuz beradi. Bunda esa u ba'zan shiddat bilan yuksalib borsa, ba'zan esa ma'lum darajada tanazzulga yuz tutishi mumkin. Insoniyat tarixi jarayoni uchun bir narsa ayonki, tarix hodisalari, shaxslar, voqealar o'tib ketadi, moddiy madaniy unsurlari yemiriladi, ammo ma'naviyat yuksalib boyib toboro kengroq ko'lam va teranroq mazmun kasb etib boraveradi. Millatning aksariyat qismi ma'naviy tanazzulga yuz tutgan fojiyaviy

sharoitlarda ham milliy ma'naviyat yo'qolmaydi, kulomi va mazmuni jihatdan o'zi yetishgan kamolot bosqichini yo'qotmaydi.

Millat mavjud ekan, milliy ma'naviyat bo'ladi. Milliy ma'naviyatni yo'qitosh mumkin emas. Milliy ma'naviyatni yo'qotish uchun qanchalik harakat qilinsa shunchalik milliylikni,milliy ma'naviyatni saqlash uchun kurash kuchayadi. Xulosa shuki inson qalbidagi milliylikni yo'qitosh mumkin emas. Milliy ma'naviyatning asosiy belgi va o'zagi profil milliy axloqiy sanalari. Bizning milliy axloqimizdagi belgilar boshqa xalqlar axloqiy qarashlarida muayyan tarizda namoyon bo'ladi. Milliy ma'naviyatda profil milliy his, tuyg'u ruhiyat ham muhim. Chunonchi, zamona taqozasi bilan boshqa yurtga safarga borgudak bo'lsak va o'sha yerda milliy kuy qo'shiqni eshitgudek bo'lsak, bizning vujudimizni ajib bir his, tuyg'u qamrab oladi va undan ruhiy huzur olamiz, qanoat hosil etamiz. Ya'ni ma'naviy oziqalamiz.

Milliy ma'naviyatda milliy manfaat ham muhim ro'l o'ynaydi. Sobiq Sho'rolar davrida milliy manfaatni millatchilikka yo'nganlar va milliy ma'rifat yuzasidan harakat qilgan kishilarni, raxbarlar va yozuvchilarni millatchi deb badnom etganlar.

O'zbek xalqi uchun umuminsoniy ma'naviyat bilan birga milliy ma'naviy va uning boyliklari ham g'oyatda qimmatlidir. Bularga o'zbek xalqining o'zi yaratgan boylikni saqlab kelayotgan, avloddan avlodga o'tib kelayotgan sayqal topib, rivojlanib borayotgan milliy ma'naviyat boylikar ajdodlardan qolgan axloqiy an'ana marosimlar, axloqiy tan nasihatlar va hokazolar kiradi.

O'zga millatlarning ma'naviy qadriyatlari qanchalik ta'sir ko'rsatmasin kattalarga, ota -onaga xurmat kamtarlik halollik imon, melmatsevarlik, mehmondo'stlik singari milliy ma'naviy fazilatlarimiz barqarordir. Chunki bu ma'naviy hislatlar avloddan - avlodga o'tib qon - qonimizga singib kelgan. Ayollarimiz qanchalik zamonaviylashmasinlar, ular hayo ibo, nomus bobida oila qarindosh urugTarga nisbatan munosabati bobida sharqona millat bor ekan, uning ma'naviyati saqlanib qoladi va rivojlanaveradi.

O'zbekistonning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi jamiyatimiz ma'naviyatida chuqirlashib borayotgan inqirozni oldini olish uchun tangrining inoyati xalqimizni baxti bo'ldi. Milliy mustaqillik tufayli jamiyatimizda milliy va ma'naviy poklamsh

o'nglanish, tiklanish jarayoni yuz berdi. Yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik, millatparvarlik ro'hida tarbiyalash milliy g'urur tuyg'usini kuchaytirish imon vijdon, halollik, poklik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik singari hislatlarni shakillantirish mustaqillikning ongli fidoisiga aylantirish hozirgi kundagi milliy ma'naviy tarbiya ishining asosiy maqsadidir.

Xalqning milliy ma'naviy ruxini va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma'naviyat shunday qimmatboho mevasi u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun insoniyatning ulkan ommasida o'z mustaqilligini tushinib etish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan birgalikda yetilgan. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi. Ona tilining buyuk ahamiyati shundaki u ma'naviyat belgisi sifatida kishilarning yaqin qilib jipslashtiradi. Tabiatga yaqmlik, jonajon o'lkaning benihoyat go'zalligidan baxramand bo'lish ma'naviyatiga oziq beradi, kuchaytiradi. Milliy ma'naviyat o'z xalqining tarixi, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyanganidagina qudratli kuchga aylanadi. Tarixga murojat qilar ekanmiz, u xalq hotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Hotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi.

Milliy ma'naviyat turli xalqlar va malakatning kishilarini qon qondosh qiladi. Ularning taqdirini o'zaro hurmat asosida yaqinlashtiradi. Bizning milliy ma'naviyatimiz asrlar davomida million- million kishilar taqdiri bilan shakllangan. Uni o'lchab ham, poyoniga yetib ham bo'lmaydi. U - inson uchun butun bir olam.

Milliy ma'naviyat insonga, havodek suvdek zarur. Sahrodagi sayyoh har doim buloqdan chanqog'ini bosadi. Xuddi shuningdek inson ham necha necha azoblar va qiyinchiliklar bilan ma'naviyat chashmasini izlaydi. Yer, oila, ota- ona, bolalar, qarindosh urug'lar, qo'ni-qo'similar, xalq mustaqil davlatimizga sadoqat insonlarga hurmat, ishonch hotira vijdon erkinlik-milliy ma'naviyatning milliy ma'nosi ana shunday juda keng. Inson uni inson darajasiga ko'tarigan asoslarning asosini o'z aqli bilan tong ma'noda qamrab olmaydi. Inson o'zini xalqning bir zarrasi deb sezgandagina u haqda o'ylab, mehnat qilib yashagandagina ma'naviyat bilan tutashadi. Bizning odamlarimiz vatandan uzoqlashganda juda iztirob chekadilar.

Chunki ularning ma'naviyat chashmasi go'yo uzoqlashib ketgandek bo'ladi. Shuning uchun ham xalq vatandan yiroqlikni og'ir qabul qiladi. Chunki unda har bir qadrdon kishi uchun qayg'uradigan umumiy qalb bor.

Milliy ma'naviyat-taqdirning ehsoni emas. Milliy ma'naviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalban va vijdonan aql va qol' bilan mehnat qilishi kerak. Bu xazina insonga hayotga barqarorlik bag'ishlaydi, uning qarashlari shunchaki boylik orttirish yo'lida kun ko'rishga yo'l qo'ymaydi. Fojialar vaqtida oraon saqlab qoladi va moddiy qiyinchilik kunlarida irodani mustahkamlaydi, xalqimizning xotirasi ajoyib nomlarga boy. Butun jahonga mashhur bo'lgan Beruniy, Al-Xorazmiy, Ibn-Sino, Imom-Buxoriy, At-Termiziy, Alimad Yassaviy, Ulug'bek Navoiy va boshqa ko'pgina allomalr ma'naviyati keng va ayni vaqtda qismati og'ir bolgan siymolardir. Ular o'zlarini haqiqatga taslma va o'zi haqiqat bo'lgan xalqga bag'ishladilar. Buyuk ajdodlarimizning ulug' nomlari xalq hotirasi va uning taqdiri munosib davom etishga loyiqdir. Milliy ma'naviyatning o'ziga xosligi tiklashga alohida e'tibor berishi kerak. Shu bilan birga milliy o'z-o'zini anglashning tiklanishi jahon insonparvarlik ma'naviyati va ma'naviy qadriyatlari ideallaridan, bizning ko'p millatli jamiyatimiz an'analari dan ajralib qolish mumkin emas.

Ta'lim O'zbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchilik faoliggini baxsh etadi. O'sib kelayotgan avlodning barcha eng yangi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi anglb olinadi va yosh avlodga o'tadi. Yoshlar ularning iqtidorligi va bilim olishga chanqoqligidan ta'lim va ma'naviyatni tushunib yetish boshlanadi.

Bizning avlodimiz mutahasislar tayyorlashning ilg'or jahon tajribasini keng jalb etadi va eng avvalo, bevosita O'zbekistonning o'zida yuqori sifat ta'lim uchun yaratadi.

O'zbek xalqining yuksak milliy qadr-qimmatli, or-nomus va shon sharafi uning o'ta mehribonligi va sof vijdonligiga asoslangandir. Biz bundan keyin ham o'zbeklarning milliy g'ururini ma'naviy yuksaltiramiz shu bilan birga umumiy vatanimizda biz bilan yashovchi va O'zbekiston Respublikasiga sadoqatli bo'lgan boshqa barcha xalqlar bilan birodarlikka intilamiz.

O'zbekistonning chinakam mustailligiga erishishdan iborat o'z yo'li respublikaning rivojlantirishning quyidagi asosiy o'ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarini har tomonlama hisobga olishga asoslanadi.

Awalo, u aholining milliy tarixiy turmush va tafakkur tarzida, xalq an'analari va urf-odatlaridan kelib chiqadi. Chuqur ildizi o'tmishdagi an'anaviy jamoa bo'lmish turmush tarziga borib taqaladigan kolliktevchilik asoslari O'zbekiston xalqiga tarixan xosdir. Kattalarni hurmat qilish oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish ochiqko'ngillilik millatidan qat'iy nazar odamlarga hayrihoxlik bilan munosabatda bo'lish o'zgalar kulfatiga hamdard bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yori hisoblanadi. O'zbeklar diyoriga, o'z vataniga mehr-muhabbat mehnatsevarlik, bilimga, ustozlarga, manfaatparvarlarga nisbatan alohida hurmat ehtirom O'zbekiston aholisiga xos fazilatlardir. Ichki va tashqi siyosatni ishlab chiqib amalga oshirish chog' ida islom dinini e'tiborga olish muhum, ahamiyatga ega. Odamlarning turmush tarzida, ruhiyatida, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda islom e'tiqod qiluvchi xalqlar bilan yaqinlashish istagida ham shu omil namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonning milliy- ma'naviy jihatdan g'oyat rang-barangligi milliy o'zligini anglash va ma'naviy qayta tiklanishining kuchayib borishi bilan uzviy birlikda jamiyatni anglash uni ochiq jamiyatga aylantirish uchun qudratli omil bo'lib xizmat qiladi va Respublikaning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi uchun qulay sharoitlarni vujudga keltiradi.

Istiqlol davri O'zbekiston jamiyati milliy ma'naviyatining eng muqadd maqsadidan biri o'tmish tarixiy-madaniy, ilmiy, axloqiy- mafkuraviy, ijtimon siyosiy qadriyatlarga Sho'ro davrida tarkib topgan munosabat kabi illat sifatid emas aksincha jamiyatni poklantiruvchi va kelajakni ma'naviy jihatdai mustahkamlovchi omil isnosida qarashdan iborat. Jamoatchilik fikri shakllandi.

Istiqlol davrida millliy ma'naviyatning har qanday siyosiy hukmron mafkuralarda holiligi, muhimi, shakllanayotgan milliy mafkuraning milliy ma'naviyat bilan uyg'unligi ta'minlanadi. Mamlakat prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov qayd etganlaridek, mustqaillik davrida bajarilishi lozim

bo'lgan eng ustuvor vazifa "xalqimiz orasida katta marifir-amaliy ishlarni olib borib milliy mafkuramizga kuch quwat beradigan, uni yangi-yangi marralar sari safarbar etadigan keng ommaga ta'sir o'tkazishga xalqni o'ziga tarafdor etishga xizmat qiladigan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy manbalarni belgilab olishdir".[2]

"Ta'lim to'g'risidagi qonun", kadrlar tayyorlashning milliy dasturi jamiyatni ma'naviy jihatdan barqarorlashtirish juda katta vazifalarni bajarmoqda, yoshlarda vatanga, millatga mehr muhabbbat hissini singdirishga jahon andozalariga mos faoliyat ko'rsatishda muhim omil bo'lmoqda. Shu bilan birga, yangi ta'lim tarbiya dasruri yoshlarda mafkuraviy e'tiqodlarni mustahkamlashda milliy g'oya va milliy mafkura mohiyatini anglashda alohida ahamiyatlidir. Zero, mafkuraviy ta'sirlas salbiy oqibatlarga olib kelmaslik uchun yoshligimizni iymon e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquwat qilish ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol inson etib tarbiyalash juda zarurdir. Islom Karimov qayd etgandek, eng muhim vazifa ularning tafakkurida o'zligini unutmaslik, ota bobalarning muqaddas qadriyatlarini asrab avaylash va xurmat qilish fazilatini qaror toptirish, ularning "Men O'zbekning farzandiman deb, g'urur va iftixor bilan yashashiga erishishdir"[3].

Har qanday sharoitda ham barcha millat va xalqlar o'zining milliy ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga muhtoj sezadi. Milliy ma'naviyat - inson uchun mavjudlik belgisi. Milliy ma'naviy boylik - u yoki bu millatni boshqa etnik birikmalardan o'ziga xosligini bildiruvchi, anglatuvchi bir omildir. Ma'naviyatga yo'q xalqning o'zi yo'q. Shu bilan birga har bir xalq ma'naviyati ham bir xil darajada emas.

Shu o'rinda mamlakat yurtboshisining "Biz xalqni nomi bilan emas, balki milliy madaniyati, milliy ma'naviyati orqali bilamiz, tarixning tak tomirigacha nazar tashlaymiz"[4] degan fikrlarida juda mantiq va ma'no bor. Biroq, Sho'rolar mustabid tizimi sharoitida o'zbek milliy madaniyati ba milliy ma'naviyati haddan ortiq darajada ko'p zarar ko'rdi. Barcha mustamlakachilik kabi kommunistik mafkura moddalari ham o'zbek xalqini qui qilish uchun eng awalo shu xalqning milliy madaniyatini yo'q qilishga zo'r berdilar.

---

[2] *Karimov LA. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. Toshkent, 1992. 16 bet.*
[3] *Karimov I.A. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. Toshkent. 2000-yil. 6-bet*
[J] *Karimov LA. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent. 1998-yil. 18-bet*

Ta'kid etish joizki, milliy ma'naviyati yuksak, uning ildizlari baquwat xalqning ijtimoiy ongidan shu xalq madaniyatini hech qachon tamomila yo'q qilish mumkin emas. To'g'ri mustamlakachiliklar natijasida o'zbek madaniyatiga katta zarar yetkazildi, uning ma'noviy ildizlarini qirqib tashlashga urinildi. Lekin ular buning uddasidan chiqa olmadilar.

O'zbek xalqi katta yo'qotishlarga qaramasdan o'zligini, o'z milliy ma'naviyatini saqlab qola bildi. Bunga yaqin va uzoq tarix guvohdir. Endigi vazifa- ma'naviy hayotdagi barcha yoqitishlarning o'rini qoplashdan iborat bo'ldi. Bu narsa xalqimizning ma'naviyat va ma'rifatga muhtojligi va uning tanqisligi bilan belgilandi. Kishining o'zligini anglashi, o'z shanini himoya qila olishi va barcha yomonliklardan o'zini tiya olishi uchun orif bo'hnog'i, qalbining tubida jinday bo'lsada ma'rifat shamchirog'i yonib turmog'i lozim. Ana shunda odam gunohdan hazar qilish, barcha ne'matlardan aql-idrok va insof doirasida foydalanish yoTini tutadi. Nojo'ya hatti-harakatlari uchun tovba-tazarruk qilish zarurligini anglay boshlaydi.

Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida ham ruvojlanishining mohiyati va uning sur'ati insonlarning ma'naviy qobiliyati darajasiga bog'liq bo'lgan. Qaysi yerda ma'naviy kamomat yuksak bo'lib, ma'rifiy-tarbiyaviy tadbirlar oqilona yo'lga qo'yilgan bo'lsa, shu saltanatga jamiyat ijtimoiy adolat mezonlari asosida tez ruvojlanganligi tarixdan ma'lum. Biz qarayotgan demakratik-huquqiy jamiyatning uch muhum tamoni bor: Iqtisodiyot, siyosat va ma'naviyat. Bu 3 omil qanchalar mustaxkam va kuchli oialektik alohida bo'lsa, kelajagimiz ravnaqi ham shunchalik ishonchli bo'ladi. Jamiyat tez ruvoj topadi. Yuksak ma'naviy burchlar kecha yoki bugun o'ylab topilgan emas. Ular insoniyat uzoq yillik, ota bobolarimizning necha-necha asrlik xayotiy tajribalari davomida yuzaga kelgan. Ma'naviyat insonga ona suti, ota namunasi o'giti bilan singib ketgan. Mustaqil Respublikamizning bugungi ma'rifiy va ma'naviyxayotiga sezilarli asrlarga teng o'zgarishlar yuz bermoqda. Milliy an'analarimiz va asriy qadiriyatlarimizning tiklanishi, hayotimizdagi o'rni yunada mustalikamlanmoqda. Jamiyat ma'naviyotini yanada yuksaltirish o'ziga xos

yo'ldan borayotgan mamlakatimiz taraqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligini bugungi taraqiyot misolida ko'rib turibmiz.

Ma’lumki kuchli, qudratli davlat kuchli ma'naviyat zamonida vujudga keladi. Mustaqillik qo'lga kiritilgan dastlabki kunlardanoq ajdodlarimiz tamonidan ko'p asrlar moboynida yaratib kelingan g'oyat ulkan-beboho ma'naviy va madaniy merosimiz, milliy qadriyatimizni tiklash davlat siyosatining muhum masalasiga aylandi. Natijada xalqimiz o'z taqdirining chinakkam egasi o'z tarixining ijodkori o'ziga xos milliy qadiriyatlarning madaniyatining sohibi sifatida tan olindi. Qisqa vaqt ichida jamiyatimizning barcha sohalarida, shu jumladan ma'naviy- madaniy sohada ham ko'zga korinarli o'zgarishlar amalgam oshirildi. Eng quvanarlisi shindaki tarixiy, milliy va ahloqiy qadiriyat hamda an'analarning muqaddas dinimizning jamiyatning ma'naviy yuksaltirishdagi o'rni va axamiyati qayta tiklandi.

Shu tufayli halqimiz o'zligini anglab, mustaqillik poydevorini tobora mustahkamlab bormoqda. Ma'naviy yuksalish borasida qo'lga kiritilgan yutuqlar bilan bir qatorda o'z yechimini kutib turgan muammolar ham yo'q emas. Har bir davlatning istiqboli, halqning farovon, osayishda turmush tarsi albatta, uning ertangi kuni kelajagi bo'lishi yosh avlodumidli o'g'il-qizlari bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ham "O'zbekiston-kelajagi buyuk davlat" degan so'z zamirida awalombor, e'tiborni yoshlarga qaratish va ularga barcha imkoniyatlarni yaratob berishdek halqning yosh avlodning ma'naviy tarbiyasi masalasida hanuzgacha katta yutiq va o'zgarishlar qo'lga kiritilmagani, bu sohada yaxlit kontseptsiya va dasturlar ilmiy-nazariy yangicha yondoshuvga asoslangan darsliklar o'quv qo'llanmalar yaratish oqsab kelayotgani sir emas.

Mustaqil mamlakatimizning oily o'quv yurtlari, akademik litseylar hamda kasb-xunar kollejlarida "Ma'naviyat asoslari" fanini o'qitishyo'lga qo'yilgandan biyon ancha vaqt o'tdi. Bu davr maskur fanning maqsadi va vazifalari xususida muayyan tasawur hosil bo'ldi, uning samaradorligini oshirish yuzasidan uslubiy pedogogik qarashlar tizimi shakillandi. O'zbekiston Respublikasining "Talim to'g'risidagi qonuni" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ga (1997 yil) muvofiq endilikda bu yo'nalishdagi say harakatlari yanada faollashtirish talab etadi. Chunki

xalqaro andozalardagi bu hujjatlar ta'lim tizimining zimmasiga dunyo ilim-fan yutuqlaridan yaxshi xabardor jahon miqyosida xalqimiz nomidan barilla so'z ayta olivchi, O'zbekiston sha'nini ulug'lashga qodir farzandlarni kamil tartishdek foyat mas'uliyatli vazifa yuklanmoqda.

Musqatil mamlaktimiz bosib o'tgan yo'llar fuqorolar hayonida va dunyoqarashoda tub burilishlar davri bo'ldi. Jamiyatimiz butunlay yangi qiyofa, yangicha mazmun kasb etmoqda. Odamlarning, ayniqsa yoshlarimizning turmish tarzlari o'zgarmoqda. Endi hamma gap shu qisqa davr ichida qo'lga kiritilgan yutuqlarni asrab-avaylashda. Hozirgi kunda erkin fuqoro ma;naviyatini milliy istiqlol g'oyasiga sodiq ozod shaxsni shakillantirish masalasi, Prezidentimiz "Bu o'z haq-huquqlarini tanlaydigan atrofida sodir bo'layotgan voqrya-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg;un holda ko'radigan. Erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak" - deb ta'kidlaganlari o'rinlidir.

Hozirgi davr O'zbekiston taraqiyotida ma'naviyat va ma'rifat ilmiy istiqlol g'oyasining roli hal qiluvchi ahaliyat kasbetmoqda. O'zbekiston Prezidenti I.Karimov "Hushyorlikka da'vat" asarida hozirgi eng muhum eng dolzarb vazifalatdan biri jamiyatimiz a'zolarini, awalombor voyaga yetib kelayotgan yosh avlatni kamol toptirish ularning qalbida milliy foya milliy mafkura o'z vataniga mehr-sadoqat tuyg'usini uyg'atish, o'zligini anglash, ularni milliy va umumboshariy qadiriyatlar ruhuda tarbiyalashdan iboratligini takidlaydi.

Bu vazifalarni amalgam oshirishda milliy ma'naviyat va ma'rifat asoslariga e'tibor qaratishimiz muhum ahamiyatga egadir. U esa o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

1. Ma'naviyat tushunchasi: uni o'qitishdagi maqsad va vazifalar, ma'naviyat ta'rifi hamda metodologik bazasi
2. Ma'naviyatning tarkibiy-asoslari: axloqiy, badiiy diniy va milliy qadiriyatlar.
3. O'zbek xalqining milliy ma'naviyati umumjaxon xalqlari ma'naviy madaniyatining ajralmas qismi ekanligi

O'zbekiston mohiyatan tomoman yangi jamiyat qurish jarayonida ma'naviyat iqtisodiyot bilan birga ustuvor yo'nalishlardan hisoblanmoqda. Islom Karimov : "Istiqlol va ma'naviyat" nomli asarida "xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va ruvojlantirish O'zbekiston davlat va jamiyatning eng muhum vazifasidir", deya bejiz ta'kidlamagan edilar.

Istiqlol tufayli ma'naviy hayotimizda tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizda bu sohaga alohida va uzluksiz e'tibor berilib kelinmoqda. Xalqimizning milliy ongi milliy g'ururi o'sib jamiyatning ma'naviy asosini yanada mustahkamlash poydevor yaratilmoqda.

Ma'naviyat tushunchasi juda keng qamrovli mazmunga ega. Chunki bu tushuncha azal-azaldan ruvojlanib kelgan. Uning atama sifatida shakillanishiga islom falsafasi ilohiyat bfani keyinchalik, ayniqsa, tasawur ta'limoti kuchli ta'sir ko'rsatgan. XX asrda "Ma'naviyat" tushunchasining mazmuni yanada kengaydi va dunyoviylik kasb etdi.

Inson xayotida moddiy ehtiyojlar qanchalik muhum ahamiyat kasb etsa, ma'naviy ehtiyojlarga talab undan ham kuchliroq ekanligini ta'kidlamoq zarur.

Ma'naviyat insonning ijtimoiy madaniy mavjudod sifatidagio adolat, to'g'rilik, sofdillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go'zallikni sevish, zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko'plab asl insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtariqlik kasb etgan majmuidir.

Ma'naviyot tushunchasining mohiyatiga ko'ra har bir qator ta'riflar beriladi: Iloxiy deb bilish; mafkuraga yondosh deb bilish; ma'naviy mohiyatining sinonimi deb bilish; ma'naviy qadiriyatlarning yigindosa deb bilish; mazkur ta'riflarning bir tomondan bir-biriga o'xshash tomonlari ko'p. Lekin bir-biridan farqli jihatlari ham mavjuddir.

Yurtboshimiz I.A.Karimov ma'naviyat masalasiga jiddiy e'tibor bermoqda. 1994 yilda uning istiqlol va ma'naviyat asari chop etildi. 1994 yil 23 aprelda president tomonidan "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi tashkil etish to'g'risidagi farmon e'lon qilindi. 2-yil o'tgach esa 1996 yil 9 sentiyabrda president

I.A.Karimovning "Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorliginioshirish to'g'risida" gi farmoni e'lon qilindi. 1997 yil 29 avgustdagi Oliy majlisning IX sessiyasida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida" gi qonun va kadrlar tayyorlashga milliy dasturida shuningdek, 1999 yil 3 sentiyabrda "Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashini qo'Hab quwatlash to'g'risida"gi president farmonida ma'naviyat masalasiga, ma'naviy qadiriyatlarga yanada katta e'tibor berildi.

Demak, o'zbek halqi milliy ma'naviyati jahon halqlari mohiyati tarixida o'ziga xos beboho o'ringa ega. Jahon madaniyatining tarkibiy qismi sifatida o'ziga xos beboho o'ringa ega. Jahon ma'naviy arming tarkibiy qismi sifatida o'ziga xos xususiyatlari bilan kishini o'ziga tortadi.

I.A.Karimovning ma'naviyat haqida gap ketar ekan, men awalo, insonni ruhuy poklanish va yuksalishga davit etadigan, inson icliki omiliniboyitadigan, uning iymon-irodasini, e'tiqodini mustalikamlaydigan vijdonini uyg'otadigan qudratlibetiniy kuchni tasawur qilaman" - degan fikirlari diqqatga sazovordir.

Ma'naviyat- insonning ruhiyatini o'z-o'zini anglashi, didi, farosati, adolat bilan razillikni, yaxshilik bilan yomonlikni, go'zallik bilan xuniklikni, vazminlik bilan joxillikni ajrata bilish qobiliyatini, aql zakovotini, yuksak maqsad va g'oyalarniqo'ya bilish, ularni amalgam oshirish uchun harakat qilish va intilish solohiyatidir.

Mamlakatimiz ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalgam oshirishda, milliy ma'naviyat va uning asosiy mohiyatini yoshlar ongiga singdirishda quyidagi vazifalarni amalgam oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- islohatlarning ikkinchi bosqichida ma'naviy axloqiy jixatdan yetik insonlar tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish;
- xalq xo'jaligining barcha sohalarida ma'naviy poklikka to'la erishish;
- milliy qadiriyatlarni to'la tiklash, shu asosida milliy iftixor tuyg'ularini shakillantirish;

- O'zbekiston Respublikasimustaqilligini mustahkamlash va takomillashtirishishlariga faol qatnashish, bu yo'ldafudoyilik namunalarining ko'rsatish;
- Mustaqillik, mamlakat va uning taraqiyoti uchun halol hizmat qilish, O'zbekiston kelajagi buyuk davlat ekanligiga ishonch tuy g' ularinitarbiyalash.
- President farmonlariga, qonunlar va mustaqil hukumatimiz chiqargan qarorlarga sodiq bo'lish, qadirlash hamda amal qilish.

Demak, ma'naviyat-nur, ma'naviyatli shaxs dilida haqiqat nuri aks etgan, o'zligini anglagan, o'zining barqarorligi o'rni va vazifasini tushunib yetgan, haqiqat oldidagi o'z maqomiga loyiq bo'lish va burchini ijro etish mas'uliyatini biladigan insondir. Milliy ma'naviyati o'z tarixiy shakillangan qiyofaga ega, shu bilan birga, mohiyatan mumumbashariy qadiroyatlarga also zid emas, balki muvofiqdir. Jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirish islohatlariniamalga oshirishda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishni tashkil etdi. Zero, prezidentimiz I.A.Karimov takidlagunlaridek, "Ma'naviyat sohasidagi eng asosiy vazifamiz-milliy qadirayatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, milliy g'oya va mafkurani shakillantirish, muqaddas dinimizning ma'naviy hayotimizdagi o'rni va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlangan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchanligini kuchaytirish"

Ma'naviyat-davlat asosi, davlat esa ma'naviyatning suyanchi. Milliy ma'naviyat, awolo, tarixiy hodisadir, u qisqa davrda shakillanmaydi. U mamlakatning ibtidosi bilan bog'liq. Milliy ma'naviyat tarixi millatning ma'naviy ruvojida namoyon bo'ladi.

Milliy ma'naviy kamolat zamonda, ya'ni millatning butun tarixi davomida yuz beradi, ammo u ba'zan shiddat bilan yuksalsa, ba'zan tanazzulga yuz tutushi mumkun. Umumaminsoniy ma'naviyat insoniyat ijtimoiy manfaati, ehtiyojiuchun xizmat qiladigan, ularni ezgulikka yo'llaydigan ma'naviy boy dir.

O'zbekistonda yangi jamiyat qurish yo'lida ma'naviyat sohasida quyidagi vazifalar amalgam oshirilganligiga e'tibor bermoq zarur:

1. Ma'naviyat va ahloqiypoklikni qayta tiklash
2. Xalqimizning milliy madaniyati va o'ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo'lishi o'zbek tilini ruvojlantirish, bu tilning davlat miqyosiniizchillik va to'liq ro'yobga chiqarish
3. hur fikirlilik, vijdon va din erkinligiqoidalariniqaror topdirish.

I.Karimovning "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" asarida ikkinchi ustivor yo'nalish-jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirishdan iboratqilib qo'yildi. Bu borada 2000 yil 22 yanvarda Oliy majlisning 2-chaqiriq 1-sessiyasida Prezident I.Karimovning "Ozod va obodVatan, erkin va farovon hayot" pirovard maqsadimiz ma'ruzasida ma'naviyat sohasida yettita bosh vazifa aniq ko'rsatib o'rildi.

Xullas, milliy ma'naviyat va ma'rifatning qisqacha ruvojlanishi tarixi tahlili shuni ko'rsatib kuribdiki, u qaysi davrda va qaysi hududda shakillanib ruvojlanishidan qat'iy nazar quyidagi tamoillarga asoslanadi:

1. Milliy ma'naviyat va ma'rifatning birdan bir maqsadi aholiga bilim berish, ma'naviy qarashini yuksaltirish, ichki ruhuy kechinmalarini bilish, ular olgan anashu bilimlarini hayotda qo'llay olishga o'rgatish.
2. Odamlarga tegishli ko'nikma xosilqildirish, ijobiy ijtimoiy fazilatlarni shakillantirish va ruvojlantirish.
3. sadoqatlilik vafodorlik, odob va ahloqiylik, mehnatsevarlik, mehmonnovozlik, iymon va e'tiqod tuyg'ularini yosh avlodlar ongiga singdirish.
4. Ta'lim tarbiyada oddiydan murakkabga, ma'lumdan noma'lumga, umumiydan xususiyga, boorish ko'rgazmalilik va uzliksizlikka amal qilish, bilimlarni tushunarli tilda xayotiy misollarda hamda zamonaviy usullarda bayon qilish.

Awal aytib o'rganimizdek, ma'naviyatning asosini vatanparvarlik, insonparvarlik, ilimli, ma'rifatli bo'lish, o'z dinini, o'z halqining urf-odatlarini sevish ularni qadirlash kabi yuksak insoniy fazilatlar tashkil qiladi. Shu sababli yuqori ma'naviyatda daxildor fazilatlar to'g'risida so'z yuritib fikrimizni O'zbekiston kelajagi va tarixi to'g'risida hulosalar bilan davom ettirdik. Chunki azal-azaldan

o'zbek halqi ma'naviyat va ma'rifat tushunchalarini qadrlagan hamda ilimli ma'rifatli boTishni targ'ib qilgan Vatanimizning gullab-yaslmayotganligi uning jahon hamda jamiyatiga yuz tutayotgani, urf-odatlarimizni qadiriyatlarimizni, milliy udumlarimizni qaytadan tiklayotganizim va ko'targanimiz bizning ma'naviyatli halq ekanimizdan dalolat beradi.

Ollohga shukronalar bo'lsinkim, biz shunday shodiyonalarning guvohi bo'libturganimiz haqida g'urur va iftihor ila so'zlasak arziydi. Mustaqillik bizga o'zimizni, tilimizni qaytardi. O'z qonunimizga, bayrog'imizga, gerbimizga ega bo'ldik.

Prezidentimiz Islom Karimov: "Mustaqil o'zbek davlati-xalqimizning tarixiy yutug'idir, xalq yuz yillar maboynida ozodlikni orzu qilgan. O'zbekiston, chinakam mustaqillikni qo'lga kiritib, gullab-yashnashi va farovonlikka erishishi taraqqiy etgan demokratik davlatlar qatori halqaro xamjamiyatda munosib o'rin egallash- biz ko'zlagan oily maqsaddir" deganda tarn ma'noda butun halqimizning orzu umuduni, maqsad va intilishlarini ifoda etgan edi.

Mustaqillik yillari ma'naviyatimizning muhum bo'g'ini hisoblangan ta'lim va tarbiya tizimiga milliy ruh bag'ishlashda bir qator ishlar amalgam oshirildi. Ayniqsa, Prezidentimiz tashbbusi va bevosita raxbarligi ostida "Ta'lim to'g'risidagi qonun" "Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi" va "SogTom avlod dasturi" ning qabul qilinishi milliy ma'naviyatimizning yuksalishida, mamlakatimizning kelajakda ruvojlangan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin egallash, mamlakatimizning obro'-e'tiborining oshib borishida muhum ahamiyatga ega bo'ladi.

Bugungi kunda mustaqilligimiz nta'minlandi, mamlakatimiz qadrini, g'ururini, or-nomusini, milliy ma'naviy merosimizni tiklash borasidagi harakatimiz prezidentimiz rahnomoligidagi harakatga aylandi.

Bu haqiqat. Bundan hech kum, hatto muholiflarimiz ham ko'z yumolmaydi. Biz muvoffaqiyatlarimiz o'tmishda faqat orzu edi, xolos. Qilingan ishlar ma'naviy merosimizni o'zlashtirish, milliy o'zligimizni anglash va boshqa ko'plab ma'naviy hayotimizda sodir etilgan o'zgarishlar mustaqilligimizning mevasi hisoblanadi.

Shuning bilan bir qatorda milliy ma'naviy tiklanish borasida ko'lami jixatdan juda katta vazifalar turibdi. Bu millatimiz tarixi va merosini chuqur o'rganishimiz lozim bo'ladi. Zero, prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Biz halqni nomi bilan emas, balki ma'naviyati, madaniyati orqali bilamiz, tarixining tag-tomiriga nazar tashlaymiz".

Yuqorida keltirilgan yutiqlarni qo'lga kiritishimizni xalqimiz adolatli ravishda prezidentimiz nomi bilan bog'laydi.

Milliy ma'naviy tiklanishimiz borasida prezidentimiz tamonidan amalgam oshirilgan muhum nazariy va amaliy ahamiyatiga ega bo'lgan ishlar quyidagi ilmiy jihatdan yangi nazariy totltseptsiya yaratganllglda namoyon bo'ladi.

a) milliy - ma'naviy tiklanishimizning ilmiy-nazariy kontseptsiyasini ishlab chiqqanligi va istiqbolda ma'naviy taraqiyotimizning XXI asrdasi vazifalarini belgilab berganligida;
b) milliy-ma'naviy tiklanishning mamlakatimizning totarizmdandemokratik jamiyatga o'tish sharoitidagi o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy asoslab berganligida va uning faqat milliy, ijtimoiy - ma'naviy tafakkurimizda emas, shuning bilan birga umumijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqiyotida yangi yo'nalish boshlab berganligida ham namoyon bo'ladi.

Prezidentimiz Islom Karimov tamonidan amalgam oshirilgan barcha ishlar xalqimizning qaddini ko'tarmoqda, o'zligini anglashda va mamlakatimizning ruvojlanishiga xizmat qilmoqda, millatimiz abadiyligini mustahkamlamoqda.

Shuning uchun ham u ishlab chiqqan kontseptual g'oyalarni chuqur o'zlashtirish va uni real hayotga tatbiq qilishda fidoiylik ko'rsatish mamlakatimiz va xalqimiz taraqiyotini ta'minlash katta amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

II-bob. Talabalarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslari.

Mustaqil O'zbekiston kuch-qudrati manbai-xalqimizning milliy qadiriyatlarga sodiqligidir. Xalqimiz adolat, tanglik, aliil qo'shmchilik va msonparvarlikning nozik kurtaklarmi asrlar osha avaylab-asrab kelmoqda. O'zbekistonni yangilashmng oily maqsadi ana shu an'analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, zamonamizda tinchlik va demokratiya , farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol topishiga erishish uchun zarur shart-sharoit yaratishdir.

Insonparvarlik-bu o'zbek xalqi milliy qadiriyatinmg ajralmas fazilatidir. Shavqatsizlik va zo'rovonlik uning tabiatiga yotdir. Bizning xalqimiz o'zming

voqialarga boy ko'p ming yillik tarixi davomida ko'p ming yillik tarixi davomida ko’p narsalarni boshidan kechirdi ma’naviyat ilm-fan, o'z daliatchiligi yutuqlari nashidasini surdi. O’zaro nizolar, begonalar asorati alamini tortdi. O'zbek oilasida bugungi kunda yaxshilik va yorug'lik, bolalarga mehr, kattalarga hurmat, yaqinlarga mehr-muruwat, vatanga muxabbat, insonparvarlik kabi milliy qadiriyatlar mujassamlashgandir.

Zero, ana shunday milliy qadiriyatlarimizni ulug'lash, ruvojlantirish, kelajagimiz poydevori bo'lgan yoshlarimizni milliy qadiriyatlar ruhida tarbiyalash, ularni qadiriyatlarimizni e'zozlashga, hurmat qilishga o'rgatish hozirgi kunning muhum vazifalaridan hisoblanadi. Ushbu vazifani hal qilish ta'lim-tarbiya tizimiga bir talay mas'uliyatlar yuklaydi. Oily ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan bo'lajak bakalabrlarga milliy qadiriyatlar ruhida tarbiyalash ancha muhum ahamiyat kasb etadi. Chunki, ular mustaqil hayotga endi qadam qo'ygan, o'z maqsadlari sari dadil harakatlar ila intilayotgan mustaqil yoshlardir. Ana shu yoshlar mustaqil Respublikamiz kelajagini barpo etuvchi, uning jahon hamjamiyatidagi o'rnini belgilovchi, Vatanni barcha balo-qazolardan avaylab-asrovchi, e'zozlovchi kelajagimiz poydevoridir. Mana shunday komil insonlarni tarbiyalash ta'lim-tarbiya sohasida xususan, musiqa ta'limi sohasiga ham ulkam vazifalar yuklaydi.

O'zbekistonni o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi natijasida ma'naviy madaniyatning muhim jafhasi bo'lgan musiqa san'ati ham juda rivoj topa boshladi, zero tabiatan noziktab, san'atsevar va san'at ahliga talabchan o'zbek xalqining musiqasi keng ko'lamli ma'naviyat ko'zgusidir. Sho'rolar davrida asosan mafkuraviy hukmronlik quliga aylangan mazkur san'at turi erkinlik yo'liga kirdi. Jamiyat a'zolari milliy qo'shiqchilik san'atidan baxramand bo'la boshladilar.

O'zbekiston hukumati xalqimizning milliy qo'shiqchilikka bo'lgan ijtimoiy ehtiyojini e'tiborga olib milliy ruhdagi xalqning ko'ngliga yaqin musiqa asarlarini yaratishga bo'lgan qiziqishni doimo rag'batlantirdi. Istiqlol dastlabki kunlaridanoq musiqa san'ati bo'yicha qator ko'rik - tanlovlar o'tkazila boshladi. Xususan, 1992-yil mart oyida Toshkent shahrida, tanbur, satoh, qo'shnay, surnay va boshqa milliy soz ijrovchilarning "Asrlarga tengdosh navolar" deb nomlangan. Respublika ko'rik tanlovi, aprel oyida Toshkent viloyatida havaskor qo'g'irchoq teatrlari jamoalarining ko'rik tanlovi, shuningdek mashhur san'atkorlar Jo'raxon Sultonov, Sayidjon Kolonov, Komiljon Jabborov, Nabijon Hasanov, Komiljon Otaniyozov, Faxriddin Sodiqov, Janoq Shomuratov laming asarlari ijrochilarining "Boqiy ovozlar" deb nomlangan ko'rik tanlovlari o'tkazildi. Ayni vaqtda 1992-yil may oyida Xorazm viloyatida folklor jamolarining askiya, qiziqchi va masharabozlarning, iyun oyida Qo'qonda o'tkazilgan IX - an'anaviy va lapar, yalla irolarining avgust oyida Toshkent shahrida o'tkazilgan XI - an'anaviy ko'rik tanlovi milliy san'atmiz rivojiga katta hissa bo'lib qo'shildi.

Mamlakatimiz hukumati qo'shiqchilik san'atidan mustaqillikning ma'naviy zaminlarini mustahkamashda ham unumli foydalanishga e'tiborni kuchaytirdi. Shu maqsadda 1995-yil dekabrda "O'zbekiston- vatanim manim" mavzudagi qo'shiqlar ko'rik tanlovi e'lon qilindi. Mazkur tanlov barcha viloyat shahar va tumanlarda juda katta ko'tarinkilik ruhida o'tkazildi va uning natijasida yuzlab yangimustaqillikdavri qo'shiqlari yaratildi, ko'plab iste'dodli san'atkorlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

"O'zbekiston vatanim manim" qo'shiq ko'rik tanlovining 1996-yil mart oyida bo'lib o'tgan birinchi bosqichida 54 mingdan ortiq san'atkorlar 10 mingdan ortiq yangi musiqaviy asarlar yaratildi. Qayd etish lozimki mazkur tanlov istiqlolini

vatanni o'zligini anglash, ong istiqlolini vatanni o'zligini anglashda muhim qadam bo'ldi. Xalqimiz bunday tadbirga qiziqishi ortiq bo'ldi.

Bularning barchasini e'tiborga olib, 1996-yil avgust "O'zbekiston vatanim manim" qo'shiq bayrami haqida maxsus farmon qabul qilindi. Farmonda fuqarolar qalbida muqaddas vatan tuyg'usini tarbiyalovchi yuksak badiiy saviyadagi musiqa asarlari va qo'shiqlarining yaratilishiga keng imkoniyat yaratish maqsadida har yili avgust oyining uchinchi yakshanbasi "O'zbekiston - vatanim manim" qo'shiq bayrami kuni deb belgilab qo'yildi. Ayni paytda xalqimizning qo'shiqchilik san'atiga bo'lgan buyuk qiziqishini e'tiborga olib, madaniyat ishlari vazirligi huzurida "O'zbeknavo gastrol - konsert birlashmasi" taslikil etildi.

Natijada mazkur ko'rik tanlov hozirda ommaviy tus oldi, unda nafaqat o'zbek milli, shu bilan birga mamlakatimiada istiqomat qilayotgan boshqa barcha xalqlar vakillarining erkin ijod qilishi o'z san'atlarini namoyon qilsih imkoniyati yaratildi. Professional va xalq badiiy ijodiyoti asosida san'at qo'shiqchilik turida keng e'tibor berilishi, ularning uyg'un rivojlanishiga sharoit yaratilishi tufayli mazkur san'at turi yanada rivojlandi.

Mamlakat Prezidentining ta'kidlashicham, ma'naviyat sohasidagi strategik maqsadimiz - "Milliy qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, milliy g'oya va mafkurani shakllantirish muqaddas ongimizning ma'naviy holatimizdagi o'rnini va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlangan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchanligini kuchaytirishdir."[5]

Istiqlol yillarida o'zbek madaniy hayoti uyg'ondi, jonlandi ba o'zining butun mavjud bo'y-bastini ko'rsata bildi. Teatr, musiqa san'ati rivoj topdi, moddiy aloqalar kengaydi, madaniy-ma' rifiy muassasalar faoliyati takomillashdi, muzeylarning ijtimoiy-ma'rifiy ahamiyati oshdi, milliy adabiyor ravnaq topdi.

Shunday qilib mustaqillik O'zbekiston ma'naviy hayotini barqarorlashtirishi uchun zamin yaratdi, ma' naviy-ma' rifiy hodisalarga munosabatni o'zgartirdi.

---

[5] *Karimov LA. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. Toshkent, 2000-yil. 24 - bet.*

Istiqlol tufayli ma'naviy turmushimizdagi ko'plab mummolar hal etila boshlandi. Ko'rilayotgan demokratik, huquqiy, insonparvar jamiyat, bozor munosabatlariga o'tish, jahon hamjamiyati bilan mafkuraviy tarbiyalarsiz o'zaro hamkorlik qilish imkoniyati ishi O'zbekiston madaniyatini xalqchil qildi. O'zbekiston, o'zbek xalqining dunyodagi o'ziga xos va mos o'rni borligi, uning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan bebaho hissasining e'tirof etilishi tufayli ma'naviy hayotning gullab yashnashi uchun mustahkam zamin yaratildi.

II.I-§ **Talabalarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda musiqiy anjumanlarning (tadbirlarning) tutgan o'rni**.

Jamiyatimizning eng muhim vazifalaridan biri- o'zida ma'naviy boylikni, axloqiy poklik va jismoniy barkamollikni mujassamlashtirigan insonni yetishtirishdir. Ana shu tarixiy vazifani hal qilishning asosiy omili murakkab va ko'p qirrali, kompleks tarbiya tizimidan iboratdir. Mazkur tizimda yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhim rol o'ynaydi.

Milliy tarbiyani kuchaytirish va uning samaradorligini oshirishga doir zarur ko'rsatmalar, dolzarb tadbirlar juda ko'p hujjatlarda o'z ifodasini topgan. Respublikamizda milliy tarbiyani takomillashtirishga va buning uchun kerakli sharoittlarni yaratishga jiddiy e'tibor berilmoqda.

Yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashni takomillashtirish zarurligi musiqa ta'limi-tarbiyasi oldiga bir qancha vazifalar qo'ymoqda.

Musiqa ta'limi va tarbiyasi- madaniyatning boshqa san'at turlariga nisbatan muhimroq tarkibiy qismdir. U insonning hissiyotiga, tuyg'usiga qaratilgan bo'lib, shular orqali uning ongiga va ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayon doimiy bo'lib, uning rivojlanishi o'zbek xalqi musiqa madaniyatining ijobiy an'analarini bevosita idrok etish orqali amalga oshadi.

Jamiyatdagi milliy munosabatlar faqat iqtisodiyot sohasida emas, balki ma'naviy hayotda ham tajribalar almashinuvining doimo kengayishi bilan harakterlanib kelgan. Barcha millat va elatlar umumiy ko'p millatli madaniyatga o'z hissasini qo'shgan. O'zbek xalqi ham boshqa hamma xalqlar kabi o'zining milliy musiqa madaniyatiga ega. Bu madaniyat tobora rivojlanmoqda va boyimoqda. Uning o'ziga xosligi ortmoqda. O'zbek musiqa san'atining taraqqiyoti barcha xalqlar san'ati uchun harakterli bir-birini to'ldirish jarayoni bilan bog'liqdir. Musiqa madaniyatlarining bir-birini boyitishi va o'zaro ta'siri o'zbek musiqasining milliy,o'ziga xos xususiyatlarini, inkor etmaydi. Ma'naviy boyliklarni keng miqyosda, almashishi milliy munosabatlar rivojlanishimng qonuniyatidir. Turli xil

san'at dekadalari, musiqiy kechalar, ko'rik-tanlovlar, xalqaro musiqiy festivallar, anjumanlar, simpoziumlar shular jumlasidandir. Ushbu musiqiy tadbirlarda har bir ishtirokchilar o'z milliy xususiyatlaridan kelib chiqib kuylaydilar, ijro etiladigan ashulalar insonda Vatanga mehr-muhabbat uyg'otuvchi, milliy urf-odat, an'analar, qadriyatlarni tarannum etuvchi milliy musiqalar ijro etiladi.

Zero, musiqa insonning tarbiyalanishida juda katta rol o'ynashi shak-shubhasizdir. Musiqa tarbiyasi bo'yicha xalqaro jamiyatning IX konferensiyasida uqtirilganidek, musiqa insonning ma'naviy dunyosiga chuqur ta'sir ko'rsatadi va unga o'zining har qanday faoliyat sohasida, har qanday kasb- korlikda zarur bo'ladigan ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilishda yordam beradi.

Bu kabi tadbirlarning ko'plab o'tkazilishi musiqa ta'limi va tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqa jamiyat rivojlanishining hamma bosqichlarida ham insonni tarbiyalash va vama'naviy boyitishning bir vositasi sifatida xizmat qiladi.Hozirgi bosqichda, ya'ni fan-texnika itaraqqiy etgan sharoitda musiqaning tarbiyaviy ahamiyati yanada ortib bormoqda.

Birinchi, texnikaning mo'lligi, hayot maromining tezlashuvi, inson o'zlashtirishi lozim bo'lgan axborotlarning ko'payishiuning aqlini takomillashtirsa-da, hissiyotlarini ma'lum darajada qashshoqlashtirishi ham mumkin. Ana shu hoi yuz bermasligi uchun mamlakatimizda shaxsni har tomonlama va uyg'un kamol toptirishning barcha tadbirlari qo'llanmoqda. Bu vazifani amalga oshirishda musiqa g'oyat muhim rol o'ynaydi. Ikkinchidan esa qandaydir chet mamlakatlardan kirib kelib yoshlar o'rtasida keng tarqalayotgan, ularning axloqiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan va shunday ta'sir ko'rsatahtgan "Bitlz", "Rok", Pop" kabi almoyi-aljoyi musiqalarning ommaviylashuviga qarshi kurashish zarurati tug'ildi. Bu kurashning dastlabki omili yoshlarimizda musiqaga, umuman san'atga to'g'ri ma'naviy munosabatni, milliy madaniyatni tarkib toptirishdir.

Musiqa insonning ongi va ma'naviy dunyosiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Xuddi shu sababli u inson uchun mayonaviy guzallikning, qalbi poklikning katta manbai bo'lishi ham, uni ko'rsata olishi, umidsizlikka solishi bag'ritosh va xudbin qilib quyishi ham mumkin.

Bularning hammasi inson qanday musiqani tinglashiga va uning mohiyatini qanchalik tug'ri baholashiga bog'liqdir.

Mashhur musiqachi pedagog D. Kobalevskiy shunday degan edi: "San'at insonni o'ziga jalb etishi yoki faqat uning ko'nglini chog' qilish qobiliyatiga ega. Qiziqish, chuqur fikrlash va chuqur hissiyotlar bilan yuzaga keladi. Ko'ngil ochish esa har qanday yo'l bilan, arzimagan ish bilan amalga oshishi mumkin, buning uchun odam faqat band bo'lsa va uning asablari tinchlansa bas. Chinakam san'at moddalar ta'sirida buzilmaydi., u asrlar davomida yashaydi va insonyatning ma'naviy dunyosini boyitadi, o'zi eskirmaydi. Ko'ngilochar musiqa esa odatda o'tkinchi modalarning beqaror qonuniyatlariga buysunadi. Eng muvaffaqiyatli estrada qo'shiklari ham bir necha haftagina yashaydi. Ko'ngilochar asarlar darrov medaga tegadi, uz jozibasini yuqotadi va yanada qizikarliroq narsaga extiyoj tug'diradi, keyin undan ham qiziqarli narsaga intilish paydo bo'ladi va bu hoi cheksiz davom etaveradi. D.Kobalevskiy musiqa tarbiyasi bo'yicha Xalqaro jamiyatning IX Konferensiyasi qatnashchilariga murojaat qilib, quyidagilarni ta'kidlagan edi: "Yoshlarning vaqtini ma'naviy dunyosini ug'irlamang, ularni o'tmishdagi va hozirgi buyuk san'at bilan muloqotda bo'lish quvonchidan maxrum qilmang. Yoshlarni buyuk kishilarning har qanday asar janri va shaklidan qat'iy nazar doimo yuksak darajadagi ma'naviy madaniyatga ega bo'lishi kerakligini ma'naviy madaniyat o'zida faqat badiiylikni emas, balki g'oyaviylik va ma'naviylikni ham mujassamlantirishini tushuntiring".

Hozirgi kunda musiqa va umuman san'atning insonni tarbiyalashdagi roli ortib bormoqda. Musiqa shaxsning ma'naviy boyligini, dunyoni idrok etishing yaxlitligini takrorlanmasligi va uyg'unligini saqlab qolishda yordam beradi.

Bulajak bakalavlarda yuqorida ta'kidlangan ezgu fazilatlarni shakllantirish, ularning ma'naviy- axlokiy dunyosini boyitish, ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash g'oyat muhimdir. Buni esa musiqa ta'limi va tarbiyasi orqali amalga

oshirish maqsadga muvofidir. Musiqiy ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan bo'lajak bakalavrlar kelajakdagi faoliyatlarida (ya'ni, maktabda, o'rta maxsus, kasb hunar kollejlarida, ta'lim berish jarayonida) mamlakatimiz poydevori bo'ladigan har tomonlama rivojlangan, barkamol shaxslarni yetishtirib chiqarishlari uchun biz bo'lajak bakalavrlarnining o'zlarini komil inson qilib, tarbiyalamog'imiz lozim.

Talabalarning axloqiy va badiiy tarbiyasini shakllantirishda xususan ularni zamonamizning har jihatdan etuk, ma'naviy rivojlangan didi baland, ta'bi nozik, go'zallikning qadriga yetadigan Vatanparvar kishi bo'lib yetishlarida musiqiy tadbirlarning roli katta. Bunga konsertlar, musiqiy-badiiy kechalar, bayramlar, ko'rik- tanlovlar, anjumanlar, musiqiy konferensiyalar, festivallar, simpoziumlar misol bo Ta oladi. Tadbirlar yoshlarning tarbiyaviy imkoniyatlarni va yoshini hisobga olgan holda o'tkaziladi.

Shu bilan birga o'qituvchi talabalarni musiqa san'atiga qiziktirishni yanada oshirib borishi lozim bo'ladi. Shundagina mustaqil O'zbekistonimizga zamon talabiga javob beradigan har taraflama mukammlal shakllangan yetuk shaxs tarbiyalab berishga o'z hissasini qo'shgan bo'ladi.

Talabalarni musiqa talimi orqali milliy qadriyatlar ro'hida tarbiyalashda quyidagi vazifalarni bajarish lozim:

1. Talaba yoshlarda milliy qadriyatlarni singdirishda musiqa mashg'ulotlarining imkoniyatlaridan keng foydalanish,

2. Har bir o'tiladigan mashg'ulotlarda talabalar tomonidan musiqani emotsional-hissiy qabul qilishining pedagogok - psixologik taxlilini joriy qilish;

3. Talabalarning musiqaviy badiiy faoliyati jarayonida ularning ma'naviy axloqiy sifatlarini shakllantirish;

4. Respublikamizda hozirgi vaqtda musiqa mashg'ulotlarini tashkil qilinishining holatini tahlil qilish;

5. Talabalarning bo'sh vaqtlarini samarali va mazmunli o'tkazish maqsadida to'garaklarga jalb qilish foizini oshirish va ko'plab musiqaviy tadbirlar tashkil etish,

6. Musiqa fani asoslarini o'granish jarayonida talabalarda milliy qadriyatlarni shakllantirislmi takomillashtirish bo'yicha o'z tajribalarini ommalashtirish va targ'ib qilish maqsadida ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish,

Shu bilan bir qatorda musiqa ta'limi orqali talabalarni dunyoqarashlarini tarbiyalash uchun quyidagi optimal uslublardan foydalanishni taqozo etadi:

1. Musiqiy mashg'ulotlar orqali talablarning ma'naviy, axlokiy-estetik dunyoqarashini shakllantirish maqsadida har bir uqitivchi musiqa asarlarni uzi chuqur tahlil qilgan holda talabalarga o'rgatishi;

2. O'rgatiladigan musiqiy asarlar Vatanparvarlik g'oyasini, milliy ro'h aks ettirilgan ro'hda yozilgan bo'lishi lozim va ushbu asarni ijro qilishda talaba asaraing mazmunini qalban his qilishi;

3. Har bir musiqiy mashg'ulotning asosiy maqsadi aniqligini ta'minlash;

4. TaTim va tarbiyaviy vositalarning bog'likligi;

5. Mashg'ulotlarda har bir tarbiyaviy maqsad va vazifalarning izchilligi;

6. Musiqiy mashg'ulotlarning har bir bo'limiga taalluqli o'quv materiallari va ko'rgazmali qurollarni to'g'ri tanlash;

7. Eng samarali natija beradigan uslublarni tanlash;

8. Har bir musiqa asarini o'rganish jarayonida talabalarning emotsional-hissiy qabul qilish jarayonida individual xususiyatlarini hisobga olish;

9. Musiqiy mashg'ulotning taslikiliy qismining aniqligi;

10. Musiqiy mashg'ulotning induvidual va jamoa bilan ish olib borishni to'g'ri yo'lga qo'yish;

11. Olib boriladigan ishlarni uslublarning turlicha bo'lishi, mazmuindorligi, emotsionalligi va tempini aniqlash;

12. Talabalarning musiqiy qobiliyati past boTganlari bilan olib boriladigan individual ish rejasini tuzish va uni bosqichma-bosqich amalga oshirish;

Talabalarning ongiga milliy qadriyatlarimizni singdirishda o'zbek musiqiy me'rosining o'rni beqiyosdir. Hozirgi vaqtda milliy musiqiy me'rosimizni o'rganishga katta e'tibor berilmoqda. Masalan, har ikki yilda Respublika Oliy o'kuv

yurtlari talabalari o'rtasida o'tkaziladigan "Xazina", "Nihol", "Barhayot an'analar" o'zbek milliy folklor san'ati va urf- odatlari festivallarini aytib o'tishimiz mumkin. Bu kabi festivallardan quyidagilarga erishimiz mumkin:

* Talabalarda o'zbek xalq musiqasini mazmunli va malakali ijro etish madaniyatini tarkib toptirish,

* folklor asarlarini ijro etish jarayonida talabalarning o'zbek xalq musiqa ijodiga bo'lgan badiiy extiyojini qondirish;

* talabalarda o'zbek musiqasi haqida zaruriy bilim va malakalarini shakllantirish vositasida milliy musiqaviy tafakkurni rivojlantirish va boshqalar.

Mustaqil O'zbekistonning yoshlariga o'zbek xalq musiqalar asosida tlim-tarbiya berish hozirgi kunning eng muhim masalalaridan biridir.Respublikamiz mustaqillikka erishganidan keyin o'sib kelayotgan barkamol avlodga milliy ro'hni o'zida in'ikos etgan milliy musiqa san'atini o'rgatish, hozirda qadriyatlarmizni qayta tiklanishida muhim axamiyatga ega bo'lib bormoqda. Milliy musiqalarni talabalarga mukammalrok o'rgatish ularni yaqindan tanishtirish maqsadida ko'plab musiqiy tadbirlar o'tkazish lozim. Ushbu tadbirlar faqat o'zbek milliy musiqalari asosida o'tkazilishi lozim.

O'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarda talabalarning egallashlari shart bo'lgan musiqa madaniyatiga oid quyidagi bilim,ko'nikma va malakalar zamr:

* o'zbek milliy musiqa me'rosi to'g'risida chuqur bilimga ega bo'lish;

* har bir mahalliy uslubda o'ziga xos ijrochilik uslublari va cholgu asboblari to'g'risida ma'lumotli bo'lish;

* Farg'ona -Toshkent, Samarqand -Buxoro, Surxondaryo-Qashqadaryo va Xorazm ijrochilik uslublari xususiyatlari, mashhur musiqa janrlarini, ularning mashhur ijrochilarini bilish;

*Maqom haqida tushuncha, o'zbek makomlari va ularning asosiy turkumlari:

Shoshmaqom, uning cholg'u, ashula yo'llari, Farg'ona- Toslikent maqomlari, Buxoro-Samarqand maqomlari, Xorazm maqomlari, cholg'u va aytim yo'Uarini bilish:

* O'zbekiston hududida mumtoz musiqani ko'p tarmoqli va mahalliy an'alarga ega ekanligi ularning o'xshashligi va o'ziga xosligi, mahalliy musiqiy an'analarning zamonaviy musiqa bastakorlari va kompazitorlari ijodi sohasida namoyon bo'lishini bilish;

*Kuylash va tinglash madaniyatiga ega bo'lish;

*Musiqa naqadar qadimiy ekanligi, o'zbek xalq musiqasining ildizlari uzoq davrlarga borib taqalib, yillar, asrlar davomida sayqal topib, rivojlanib kelganligi, shu bois halqimizning boy madaniyatini, milliy qadriyatlarimizni o'zida aks ettirishni va nihoyat o'zbek milliy musiqamiz umumbashariy jahon musiqa madaniyatining ajralmas bir bo'lganligini tassawur qila olish;

*0'zbek milliy musiqiy me'rosini o'rganish orqali ularda milliy g'urur va Vatanparvarlik hissini shakllantirish va ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash;

II.II-§ Samarqand-jahonshumul musiqiy anjumanlar markazidir.

O'zbekistonning qadimiy shaharlari bo'lmish Buxoro, Xiva, Termiz, Toslikent (CHoch-SHosh) qatorida Samarqand ham respublikamizning ijtimoiy, ilmiy va madaniy turmushning markazlaridan biri hisoblanadi.

Samarqandning olamshumul mohiyatlarini e'zozlab Respublikamiz Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimov "Samarqand-xalqimiz, millatimiz davrug'ini butun dunyoga taratgan, ming-ming yillik tarixga ega ilohiy maskanimizdir" deya ta'kidlagan edilar.

Qadimdayoq Samarqand o'z san'ati: naqshinkor bezaklar, yog'ochga va ganchga naqsh solish, metalga o'yma naqsh tushirish, zargarlik buyumlari bilan mashhur bo'lgan. Moddiy madaniyat bilan birgalikda Samarqandda qadim zamonlardan fan va ma'naviy madaniyat ham rivojlangan.

Samarqand uchun qadim zamonlardan ikki xalqlar-turkiy tilli (o'zbeklar) va forsiy tilli (tojiklar) madaniyatlarining chambarchas ulanib ketishi harakterlidir. Fors-tojik va turkiy madaniyatlarining asrlar davomida chuqur aloqalari nafaqat

adabiyot balki musiqada ham namoyon bo'lib, bu ayniqsa musiqa asboblarining birligida ko'rinadi (qobuz, yotugan, ud, chang, rubob, tanbur).

Shuni hisobga olish kerakki, arxiologlar, tarixchilar, musiqashunoslarning guvohlik berishicha bu asboblardan biri-o'rta asrlar udi (udning biri turi) SHarqda, jumladan Afrosiyobda qadimdan tarqalgan bo'lib, Evropada esa ud ijrochiligi ancha keyin ma'mm bo'lgan.

Ko'pchilik o'rta asr shoirlarining ijodida she'riyat va musiqa chambarchas bog'lanib ketgan. Masalan, kelib chiqishi bo'yicha Samarqandlik bo'lgan Abu Abdullo Rudakiy (IX asrning II yarmisida to'g'ilgan) fors-tojik adabiyotining asoschisi hisoblanib, buyuk musiqachi ham bo'lgan, yaxshi ovozga ega bo'lgan, bir necha musiqiy asboblar ijrochisi bo'lgan.

Buxoro va Hirot kabi, O'rta Osiyoda ancha keyingi davrlargacha, deyarli XX asrgacha saqlanib kelgan o'rta asrlar davri musiqaviy ijtimoiy hayotning eng ilg'or an'analarining tug'ilishi Samarqand bilan bog'langan. Bunda o'rta asrlardagi O'rta Osiyo shaharlarining musiqaviy va adabiy hayotidagi eng ahamiyatli va jadal shakli-majlislar nazarda tutiladi.

A.Jumaevning qayd etishi bo'yicha "Ular juda qadimiy an'analarga ega bo'lgan, biroq tarixning temuriylar davridagi (XIV asrning ikkinchi yarmi-XV asr) ikki madaniy markaz-Samarqand va Hirotda ayniqsa keng tarqalishga erishgan. Buning sababi bu davrda turli san'atlar va fanning gurkirab rivojlanishi, shuningdek iqtisodiy yutuqlar va savdo munosabatlarining rivojlanishi oqibatida ma'naviy madaniyatning umumiy yuksalishi hisoblanadi.

Majlislar ishtirokchilari maqomlarning yaxshi bilimdonlari edilar. A.Jumaev ta'kidlanganidek, Muhammad Nishopuriyning «Risola dar ilmiy musiqiy» (musiqa fani haqida traktat) asarida ko'rsatilishiga barcha maqomlar ichida eng yoqimlisi «Majlis afro'z» («Alangalanuvchi majlis») degan alohida nom olgan Iroq maqomi bo'lgan.

Maqomlarni nafaqat olimlar, shoirlar, musiqachilar bilganlar, ular xalq tomonidan ham sevilgan, qishloq va shaharlarda keng ijro etilgan. Samarqandlik

SHashmaqom ijrochilarining sevimli poetik matnlari Navoiy, Fizuliy, Bedil, Hofuzlarniki bo'lib, biroq xalq tomonidan ham yaratilganlari kam emasdi.

Samarqand hej qachon O'rta Osiyoning boshqa shaharlaridan ajralgan holda rivojlanmagan. Samarqandning ko'plab SHarq shaharlari va davlatlari bilan chuqur aloqalari tarixiy sharoitlar bilan belgilanadi: Temur hukumdorligi vaqtida 1370 yildan 1405 yilgacha Samarqand ulkan imperiyaning poytaxti bo'lgan. Temuriylar davrida, ayniqsa Temurning nabirasi, jahonning buyuk olimlaridan biri-sulton Ulug'bek Muhammad Tarag'ay hukumdorligi vaqtida (1394-1449) Samarqandning fan va madaniyati yuqori yuksalishga erishadi. Ulug'bekning o'zi nafaqat buyuk olim-astranom bo'lgan, balki, risolalarda yozilishicha, musiqaning bilmdoni va bir qator musiqaviy usullar: «SHodiyona» (ushbu nom ostidagi usul bizgacha etib kelgan), «Usuli ravon», «Usuli bahri» va boshqalarning muallifi bo'lgan.

Samarqandda adabiyot va san'atning mashhur namoyondalari-shoirlar Sakkokiy, Bisotii Samarqandiy, Badaxshiy, Durbek, miniatyurachi-rassomlar Abdurahim va Abdukarim ijod qilganlar.

Temur saroyi huzurida ishlagan musiqachilar orasida mashhur musiqachi-nazariyotchi Xo'ja Abdulqodir Marog'iy (XIV-XV asr) ham bo'lgan. Uning «Jami'al alxon» («Ohanglar to'plami») va «Maqosid-ul-alxon» («Ohanglarning o'rinlari») asarlarida XIV-XV asrlardagi musiqa nazariyasining muammolari ochib berilgan.

Abdurahmon Jomiy ham qiziqishlarining ko'p qirraligi bilan ajralib turgan. Musiqaviy madaniyat tarixiga u musiqaviy-nazariy fikrning rivojida salmoqli rol o'ynagan «Musiqa haqida risola» ning muallifi sifatida kiradi.

Yosh Navoiy bir necha yil davomida (1465-1469 y.)Samarqandda yashagan, musiqa sirlarini o'rgangan, musiqiy asboblarda cholgan, olimu-mudarrislar, shoirlar va musiqachilarni e'zozlagan.

Musiqa nafaqat majlislarda yangrab turadi, balki SHarq xalqlari madaniy hayotida o'quv yurtlari sifatida muhim rol o'ynagan madrasalar turmushiga kirib bordi.

Ko'pgina Samarqand olimlari musiqa haqida risolalar yozganligi ibratlidir. Ulug'bek, Bibixonim, Ahmad Hojibek, Fazlulloh Abu Lays madrasalari bilan chambarchas bog'langan ko'plab taniqli musiqachilarning nomlari saqlangan. Adabiy manbalarda shoir, xattot va musiqachi Amir Ali Akbar Samarqandiy (XVI a), tabib-jarroh, shoir-musiqachi Boqi Jarroh Samarqandiy (XV a) nomlari eslatiladi.

Shoir, adabiyotshunos, musiqa nazariyotchisi Kohi Mavlono-Qosim (Xv-XVI a) qiziqarli shaxs bo'lgan.

Shoir, adabiyotshunos, tarixchi va musiqachi Mutribiy Samarqandiy (XVI-XVII a) bilimlarining kengligi bilan ajralib turgan.

Samarqand madaniyati tarixiga shuningdek, musiqachilar Pirmuhammad Kulol Samarqandiy (XVI a), bir qancha risolalar muallifi Riyozi Samarqandiy (XV-XVI a), Safoi Samarqandiy (XV a), shoir, musiqachi-naychi Sulton Ahmad Devona Samarqandiy (XV a), «Ud» asbobida mashhur ijrochi Sulton Muhammad Uddii Samarqandiy (XV a), "Qonun" asbobini mohirona egallagan Xo'ja Ja'far Qonuniy Samarqandiy (XV a) alohida e'tiborga loyiqdirlar.

Samarqand musiqachilaridan XVI asrning ikkinchi XVII asr boshlaridagi olim Darvesh Ali CHangi ko'p martalab eslatiladi, uning ijodiy Xorazm musiqachilari bilan Samarqanddagi uchrashuvlar vaqtida yaratilgan peshrav shaklidagi cholg'u asboblari uchun pesalar muvoffaqiyati bilan bevosita bog'langandir.

Uncha to'liq bo'lmagan nomlar ro'yxatining o'ziyoq Samarqandda yuksak rivojlangan og'zaki an'analarning professional san'ati mavjud bo'lganligi haqida guvohlik beradi. Bular bu erda rivojlanib kelayotgan turli-tuman folklor ashulalari va raqs janrlari bilan birga bo'lgan «Qarsak» yoki «Beshqarsak» deb nomlangan erkaklar ashula-raqs janri so'zimiz isboti bo'laoladi.

Samarqandda turmush folklorining boshqa janrlari ham katta o'rin egallagan. Har bir Samarqandlikning uyida musiqa har dohn yangrab turmoqda. Musiqa asboblaridan dutor va tanbur ayniqsa mashhur bo'lgan. Musiqa ko'plab marosimlar bilan ham chambarchas bog'langan.

Respublikamizning boshqa shaharlariga qaraganda Samarqandda nikoh to'yi marosimlarining teatrlashganligi ko'zga tashlanadi va ularda musiqiy rasmiylashuvning roli kattadir. Jumladan, nikoh to'yi yurishi yorqin, rang-barang taslikil etilgan. Kiyovning uyiga qadar mash'allar bilan «YOr-yor-yorone» deb kuylayotgan erkaklar kuzatuvlari kishiga zavq-shavq bag'ishlaydi.

Shahar madniy hayoti xususiyatlarining ayrim ijtimoiy-tarixiy sarchashmalari to'g'risidagi faraziy taxminlarni aytishimiz mumkin. Samarqand qadimdan ko'p millatli shahar bo'lgan. Samarqand aholisi Temur davrida ayniqsa ko'p sonli va ko'p tilli bo'ladi, uning buyrug'i bilan poytaxtda Hindiston, Misr va boshqa mamlakatlarning bo'ysundirilgan shaharlaridan olimlar, shoirlar, musiqachilar, rassomlarni keltirganlar.

Samarqandning madaniyati feodal nizolari va o'zaro urushlari, chet el bosqinchilariga qarshi kurashlarning murakkab sharoitlarida rivojlangan.

O'rta Osiyo hokimiyatiga kelgan SHaybonilar bu erda mavjud bo'lgan musiqiy an'analardan ko'plarini qabul qildilar.

XIX asrning ikkinchi yarmida XX asrning boshlarida mashhur qo'shiqchi, shashmaqomning bilimdoni, turmushda keng tarqalgan o'zbek kuylarining yangi variantlarining muallifi Xoji Abdulaziz Abdurasulov (1855-1936) Samarqandning shuhratiga aylandi. Bu qobiliyatli musiqachi-taqlidchi va ustoz o'z tajribasini musiqachilarning bir necha avlodiga etkazib berdi. Hoji Abdulaziz shashmaqomning umum tan olgan bilimdoni bo'lib, unda o'qish o'rganish uchun O'zbekistonning turli burchaklaridan shogirdlar kelardi. Hoji Abdulaziz bilan birgalikda Oqixon, Levicha, Qori YOqub, Kamol hofiz, Ma'rifatxon, Maqsadcha kabi ko'plab boshqa musiqachilar ham etishib chiqdilar.

1964 yilgacha yashagan Samarqandlik qo'shiqchi Hojiqurbon Homidov (1888 yilda tug'ilgan) ham XX asr boshlarida g'oyatda mashhur edi. U doira jo'rligida ashulalar aytib, bastakor, taqlidchi-askiyachi, o'yinchi sifatida ajralib turardi. Rubob va tanburning ijro-o'yin usullariga o'z ovozini judayam o'xshata olgani uchun xalq orasida Hojiqurbonni «Hoji tam-tam» deb atashgan. Hoji Abdulaziz ham, yosh Hoji tam-tam ham asosan, shoirlar, olimlar, san'at

ixlosmandlarining majlis-yig'ilishlarida o'z mahoratlarining ochib berganlar. SHu bilan birga Hoji Abdulaziz Abdurasulovning repertuari maqomlar qismlari hamda og'zaki an'analarining boshqa musiqiy asarlaridan iborat bo'lgan. Hoji tam-tam esa turmush folklor ashulalarini keng targ'ib qilgan. Uning repertuariga «YAli-yali», «Omon-uog», «Karima-kuylak», «Vog-boraver bormayman», «Biyo yak», «Meravam» va ko'plab boshqa xalq qo'shiqlari kirgan.

Qadim zamonlardan hozirgi kunlarga qadar ham Samarqand viloyati xalq an'analari ijrochiligining, dostonchilikning yirik markazi hisoblanadi. XIX asrning II yarmida bu erda Xatirchi, Nurota, Bulling'ur, Narpay dostonchilik maktablari shakllandi. Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, PoTkan Muhammadqul Jomrot o'g'li (PoTkan shoir), Islom shoir Nazar o'g'li epik ijodiyotining yirik vakillari edilar. Ularning barchalari uzoq umr ko'rib, umumxalq e'tirofiga erishdilar.

Hozirgi davrda dostonchi-shoirlarga (baxshi-shoirlar) katta e'tibor berilmoqda. Mustaqil respublikamizning rahbariyati bu og'zaki ijodiyotini yanada yuksalishi borasida ko'zga tashlanadigan imkoniyatlarni yaratmoqda va bu ota-bobolaridan qolgan dostonchilik an'anasini yosh avlodlar davom etmoqdalar.

XX asrning 20 yillaridan saksonichi yillarigacha respublikamizning barcha shaharlarida va shu jumladan Samarqandda ham badiiy havaskorlik to'garaklari, havaskorlik studiyalari, xor jamoalari, madaniyat uylari, maktablarda, maxallalarda, tuman va shaharlarda oilaviy ansambllar o'z faoliyatlarini davom etib kelganlar. O'sha yillardagi ko'zga ko'ringan badiiy havaskorlik jamoalaridan «Ko'k kuylak», «YOsh kuch» va boshqalarni misol keltirishimiz mumkin kim, bu jamoalardan respublikada ko'zga ko'ringan san'at xodimlari etishib chiqdi: Hoshim Narziqulov, Abdullo Abduraupov, SHarif Akramov, Komil YUsupov va boshqalar.

Saksoninchi yillar davomida Samarqand badiiy havaskorlik to'garak qatnashchilari viloyatdagi barcha tadbirlarda, festival va simpoziumlarda faol qatnashib xalq e'tiborini o'zlariga jalb etdilar.

1991 yildan boshlab Mustaqillikga erishganimizdan keyin respublikamiz haqiqiy o'z yo'lini olg'a surib xalq an'analari, urf-odatlari, ashula va raqs ansambllari rivojiga erkinlik nashidalarini bag'ishladi.

Samarqand madaniyati va musiqiy san'atining rivojida folklor-etnografik ansambllar alohida o'rinni egalladi. Samarqand viloyati hududi Jizzax, Qashqadaryo, Buxoro, Tojikiston, Qozog'istonlar bilan ulashgan bo'lib folklor-etnografik ansambllarining dasturlari xilma-xil, sermazmun va baynalminaldir. «Qovun sayli», «Beshik to'yi», «Sumalak», «Navro'z», «Gilam to'qish», «Tandir solish», «Boychechak» kabi chiqishlar ming yillik xalq urf-odatlari nishonalaridan bo'lib tomoshobinni zavqlantiradi.

Samarqandda hozirgi yillarda faoliyat ko'rsatayotgan folklor-etnografik jamoalaridan «CHavki», «Qo'sh doira», «CHanqovuz», «Sedona», «Guliyor», «Saxoba», «Darg'om navolari», «Sumbula», «Dahbed gullari», «YUlduzcha», xalq xizmatida bo'lib yosh avlodni estetik ruhda tarbiyalashda o'z san'atlarini ayamay kelmoqdalar.

Mustaqillik sharoitida oilaviy ansambllar soni ham kengayib bormoqda. Bu jamoalardan qobiliyatli yigit-qizlar etishib chiqib respublikamiz musiqa san'atini rivojiga quvonarli darajada o'z hissalarini qo'shmoqdalar.

Xalq hajviy qo'shiqlaridan «YAllali bobo», «Deydiyor», «YAllama yorim», «Qora soch», «Omon yor», «Qayda boray»lar folklor-etnografik jamoalar dasturlariga kiritilgan va xalq dilidan joy olgan.

Samarqand badiiy havaskorlik to'garaklari jamoalari ijodiy safarlarda: Fransiyada, Italiyada, Tursiyada, AQSH, Anglyada, Germaniyada va boshqa davlatlarda bo'lib o'zbek milliy san'atini butun dunyo xalqlari diqqatiga havola etganlar.

Registon maydoni bayram tantanalari Mustaqillik, Navro'z, musiqiy simpozium va festivallar o'tkazish markazida aylanib qolgan.

Shunday qilib Samarqand qadimiy va hamisha navqiron shaharlarda biri bo'lib, dunyo sivilizasiyasining yuksalishiga va mustaqil O'zbekiston musiqa san'atining rivojiga o'zining ulkan hissasini qo'shib kelmoqda.

Xulosa

Musiqiy tadbirlar orqali talabalarni ma'naviy-axloqiy, milliy qadriyatlar ro'hida tarbiyalashning qulay shaklidir. Men pedagogik tajribamda talabalarni milliy qadriyatlar ro'hida tarbiyalash uchun musiqiy tadbirlarni tashkil qilish, o'tkashish chora-tadbirlarini o'rganib kuzatdim. Mazkur tajribamda milliy musiqalarni faqat ijrochilarga emas, balki musiqiy tadbirlar hamda tadbir qatnashchilariga va oliy o'quv yurtining tinglovchi talabalariga qanchalik ta'sir ko'rsatishini ham kuzatdim. Tajribam natijalari milliy musiqalar talabalarning ma'naviy dunyosiga, ongiga va ruxiy extiyojlariga bir xil bo'lmasa-da, samarali ta'sir etishini tasdiqladi. Ana shu ijobiy ta'sir musiqiy tadbirlar qatnashchilariga tinglovchilardagilarga nisbatan kuchliroq ekanligini yaqqol anglash mumkin. Bu hoi mutlaqo tabiiydir.Chunki tadbir qatnashchilari ijodiy jarayonda faol ishtirok etadi, ular bilan musiqaning tarbiyaviy axamiyatini oshirishga qaratilgan maxsus ishlar olib boriladi. Shuningdek, tadbirlar qatnashchilari talabalar orasida xalq musiqasini ommalashtiruvchilar sifatida ham faoliyat ko'rsatadilar. Bundan tashqari, tajribam davomida milliy va vatanparvarlik mavzuidagi musiqalarga qiziqadigan, xalq musiqa madaniyatini o'rganish bilan shug'ullanayotgan talabalar soni tobora ortayotgani va shunga ko'ra konsertlarda tinglovchilar ham ko'payib borayotganligi ma'lum bo'ldi.

Respublika ko'rik - tanlovlari musiqiy - ijrochilik va g'oyaviy jihatdan yuqori saviyada o'tadi. Tanlovning har bir ishtirokchisi musiqa-ashula ijrochiligida faol qatnashishi tufayli san'atning ijobiy ta'siridan baliramand bo'ladi. Lekin ko'rik - tanlovning tarbiyaviy axamiyati shuning o'zi bilan cheklanmaydi: mazkur tanlovlar ko'pchilik tinglovchilarni musiqa madaniniyatiga jalb etislming ajoyib vositasi sifatida xizmat qiladi, ularning ma'naviy hamda estetik saviyasiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, musiqa san'ati insonda ajoyib fazilatlarni shakllantiradi, ijodkorlikni, tasawurni rivojlantiradi. Mustaqil Respublikamiz milliy istiqloliy

o'zgarishlarni boshidan kechirayorgan hozirgi davrda yoshlarning oldida ulkan vazifalar qo'yadi. Ayniqsa, milliy mafkura, milliy istiqlol g'oyasi, manaviy dunyoqarashni shakllantirish, madaniy meros va umuminsoniy qadriyatlar sohasida kuchli izlanishlar zarurdir. O'zgarish va yangilanish ma'naviy barkamolikka erishish uchun awalo milliy, axlokiy, ma'naviy va estetik tarbiyalarni rivojlantirish eng dolzarb masalalardan biri xisoblanadi.

Ma’lumki, musiqa san'ati ijtimoiy xayotimizda keng o'rin tutib, asrlar osha inson shaxsini shakllantirishda ulkan ahamiyat kasb etib kelmoqda. Musiqa o'z tabiatiga ko'ra kishilar hayoti, ularning o'zaro munosabatlari hamda turli voqealarga munosabatini va ichki kechinmalarni xilma-xil tovush ohanglari bilan badiiy obrazlar vositasida tasvirlaydi. Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta'sir eta olish xususiyati bilan birga o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va axloqiy g'oyaviy tarbiyalashning muxim vositasidir.

Talaba-yoshlar musiqaning san'at sifatida tasvirlash qudratini, tabiat va xayot go'zalligini, voqelik va hatti-harakatlardagi qaytarilmas, ko'z ilgamas qirralarini musiqa oxanglarida idrok etadilar, chuqurroq his etadilar.

Shu bilan birgalikda talabalarda milliy musiqa me'rosimizga va u orqali ona Vatanga muxabbat hissini tarbiyalash: jamiyatga foyda keltirishga ishtiyoq, farzandlik, o'quvchilik burchini va jamoatchilik oldidagi burchini anglash, do'stlik, o'rtoqlik va insonparvarlik tuyg'ularini tarkib toptirish mumkin.

Ma'lumki, musiqa san'at sifatida ijtimoiy ong formasidir. Shuning uchun ham musiqa darslari o'zining badiiy- g'oyaviy mazmuni, tarbiyaviy jihatlarining kengligi, o'tmish va bugungi o'zligimizni anglashimiz, milliy qadriyatlarimiz ro'hida tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Zeroki, musiqa asarlarining badiiy g'oyalari musiqaviy-badiiy tarbiyaning ichki mazmunini tashkil etadi. Demak, musiqa hayotimizda keng o'rin tutgan va inson shaxsining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan san'at turidir.

Musiqa insonga faol emotsional ta'sir ko'rsatadi, kishi ro'hiyatini va fiziologiyasini o'zgartiradi. Chunki musiqa kelajak va hayotni aks ettiradi. Inson musiqani ona allasi orqali idrok etib, umrbod musiqadan zavq oladi va madad

topadi. Milliy madaniyatimizning ma'naviy boyligi va ravnaqi musiqaning jamiyatdagi o'rni hakida allomalarimiz juda ko'p foydali fikrlar bildirganlar.

Mustaqqil Respublikamiz milliy- istiqloliy o'zgarishlarni boshidan kechirayotgan hozirgi davrda o'qituvchi - pedagoglar oldiga zamon talablariga javob beradigan talaba - yoshlarni tarbiyalashdek ulkan va muhim vazifalar qo'yadi. Ayniqsa, milliy mafkura, milliy istiqlol g'oyasi, manaviy shakllanish, madaniy me'ros va umuminsoniy qadriyatlar sohasida kuchli ilmiy - izlanishlar zamrdir.

O'zgarish va yangilanish ma'naviy barkamolikka erishish uchun awalo, milliy, axlokiy, ma'naviy va nafosat tarbiyalarini rivojlantirish eng dolzarb masalasi bo'lib hisoblanadi.

Prezidentimiz I.A.Karimov milliy ma'naviyatni yuksaltirish borasida quyidagi fikrlarni bildirgan edilar: "Xazinalarga to Ta milliy-tarixiy an'analar bilan, umuminsoniy ma'naviy boyliklar bilan hisoblashmasak" jamiyatga qanchalar zarar keltirganligini qayd etib, yangicha vazifalrni olg'a surdi:

"Birinchi navbatda milliy madaniyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e 'libor berish lozim. Bu xazina asrlar davomida misqollab to 'plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o 'tgan. Insonlarga og 'ir damlarga madad bo 'Igan.

Bizning vazifamiz-shii xazinani ko'z qorachog'imizdek asrash va yanada boyitish, so 'zda emas, amalda har bir kishining vijdon erkinligini, e 'tiqodining erkinligini ta 'minlashimiz kerak".

Musiqa ijtimoiy xayotimizda keng o'rin olib asrlar osha inson shaxsini shakllantirishda ulkan axamiyat kasb etib kelmokda.

Istiqlolning safoli nasimi xalqimizning azaliy orzu-armonlarining ushalishiga sabab bo'lmoqda, qaddimizni rostlashimizga, baxtli taqdirimizga, navqiron XXI asr orzuli, saodatli va qutlug' kelajakka, munawar zamonlarga ishonchimizni tobora oshirmoqda.

Zotan, hech bir zamonda insoniyat ma'naviyati, ma'rifati, iqtisodi va siyosati milliy hayotbaxsh mafkura - badiiy tafakkursiz, so'z san'atining ishtirokisiz va musiqa ta'sirisiz yaratilmagan. U yoki bu mamlakatning ravnaqi, shuhrati va kuchi xalqning shuuri, ongliligi va savodxonlik darajasi bilan bog'liq. Xususan, muayyan

yurtning bilimdon, aql-zakovatli, millatparvar, badiiy-tabiiy zavqi baland fidoyi farzandlari - ijodkor ziyolilari jamiyatning salohiyati, farovonligi va barqarorligini ta'minlashga qodirdirlar.

Musiqiy anjumanlarning hozirgi ahvolini tahlil qilar ekanmiz, Respublikamizda tashkilo qilinib o'tkazilib kelinayotgan musiqiy tadbirlar va xalqaro anjumanlar yuqori ko'rsatkichda ekanligining guvohi bo'ldik.

Bundan tashqari konsert, adabiy kechalar, ijodiy uchrashuvlar, turli milliy bayramlar, teatr, musiqa haftaliklari tashkil qilishning uslubiy yo'nalishlarini ko'rsatib beradi. Shu bilan birgalikda ommaviy ishlar shaklining har biriga oldindan dastur tuzish, tayyorgarlik ko'rish uslubiyati to'g'risida fikrlar bayon qilinadi.

Ommaviy musiqa tarbiyasi umuminsoniy tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirislmi o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Musiqa tarbiyasi jarayonida olib boriladigan musiqa tadbirlariga: musiqa anjumanlari, musiqa to'garaklari, musiqaviy bayramlar, musiqa kechalari, xavaskorlar konsertlari, ijodiy uchrashuvlar, ma'ruzalar, musiqiy spektakllarga jamoa bo'lib borish va ashula san'at bayramlari kiradi.

Ilmiy-izlanishlarmizning natijalari shuni ko'rsatadiki, o'tkazilayotgan turli xil musiqiy anjumanlar, jumladan: "O'zbekiston vatanim manim", "San'at bayrami", "San'at g'unchalari" va "Nihol" kabi ko'rik- tanlovlar talabalarning milliy ongini rivojlantirishga, milliy- ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birgalikda sahna hayotining sirlaridan voqif qiladi. San'atkorning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik jarayoni amalda shu muhim vazifalarni bajarishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov LA. "Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir". Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 1995 yil, 91- bet.

2. Karimov LA. Kelajakni jasoratli odamlar qnradi. "Xalq so'zi" gazetasi, 1999 yil, 17 fevral.

3. Karimov LA. "Bizdan ozod va obod Vatan qolsin".Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 1994 yil, 104-105-betlar.

4. Karimov LA. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 1992. 16 bet.

5. Karimov LA. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2000-yil. 6-bet

6. Karimov LA. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 1998-yil, 18-bet.

7. Karimov LA. Ma'naviy yuksalish yo'lida. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 1998 yil.

8. Karimov LA. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirislming asosoy yo'nalishlari. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2002yil.

9. Karimov LA. Olloh qalbimizda yuragimizda. Toslikent, "O'zbekiston" nasliriyoti, 1999 yil.

10. Karimov LA. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni- xalq millatni- millat qilishga xizmat etsin. Toslikent, "O'zbekiston" nasliriyoti, 1998 yil.

11. Mahmudov T. Mustaqillik va ma'naviyat. Toslikent, "O'zbekiston" nasliriyoti, 2001 yil.

12. "Markaziy Osiyo madaniyati" gazetasi, 2000 yil,22-28 sentyabr. "Fan va turmush" 2000 yil, N-2, 10-11 betlar.

13. Nosirxo'jayev S.H., Lafasov M.F., Zaripov M.Z. Ma'naviyat asoslari. Toslikent- "Fan" nashriyoti- 2002 yil, 3 bet.

14. "Matbuot axboroti" risola. ("Sharq taronalari" xalqaro festivali haqida) Samarqand, 1997 yil.

15. Karimov I.K. Ma'naviyat, falsafa va hayot. Toshkent, "Fan" nasliriyoti, 2001 yil.

16. Odilov A. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi. Toslikent, "O'qituvchi" nashriyoti, 1995 yil.

17. Matyoqubov O. Maqomot. Toshkent, "Musiqa" nashriyoti, 2004 yil.

18. Rajabiy Yu. Musiqa merosimizga bir nazar. Toshkent, "G'.G'ulom" nasliriyoti, 1978 yil.

19. Solomonova T.Ye. O'zbek musiqasi tarixi. Toshkent "O'qituvchi" nashriyoti, 1981 yil.

20. Rashidova D. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent, Tarjima, 1989 yil.

21. YoTdasheva S.X. O'zbekistonda musiqa tarbiyasi va taTimining rivojlanishi. Darslik, Toshkent, "O'qituvchi" nashriyoti, 1985 yil.

22. Xasanov A. Havaskorlik to'garaklari orqali axloqiy- estetik tarbiyani kuchaytirish yo'llari. Uslubiy qo'llanma, Toshkent, "O'zbekiston", 1998 yil.

23. Hasanboyev J., Turopova M., Hasanboyeva O. "Ma'naviy- axloqiy tarbiya asoslari", Metodik qo'llanma, Toshkent, "G'.G'ulomnomidagi adabiyot va san'at" nashriyoti, 2000 yil.

24. Serov A.N. Izbranni'ye stati. Tashkent, "Muzgiz", 1957 god.

25. Muzi'kalnoye obrazovaniye v sovremennom mire. Moskva, "Sovetskiy kompozitor",1973 , 29 bet.